Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'rifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2021-yil 13-oktabr, chorshanba № 42 (9367)

Xalq ziyolilari gazetasi

Dars taqsimoti

yoxud an'anaviy avgust janglari haqida

O'qituvchi nimani o'ylaydi?

Bu yil fan olimpiadasini o'tkazish va baholash jarayonlari oldingi yillarga nisbatan shaffof bo'layotgandek. Bu borada 29 yillik "staj"im bor. Har doim g'oliblarning ishi ommaga ko'rsatilishi kerakligini aytib charchardim. Bu yilgi nizomda shu masalaga alohida e'tibor berilibdi. Bu, haqiqatan, adolat mezonlarining ishlayotganini ko'rsatadi. Qolgan o'quvchilar o'z xatolariga iqror bo'ladi, hakamlarga nohaq tosh otilmaydi. Shunday o'zgarishlar bo'laversa, fan olimpiadalari sofligiga erishiladi.

Ziyoda MAMAJONOVA

O'qituvchilar bu gaplari bilan biror nimaga erisha olmasligini bilsa-da, o'ylayveradi, o'ylayveradi. Sevimli gazetamiz esa fikrlarni, mulohazalarimizni chop etishdan aslo charchamaydi. Mayli, bizning ikki og'iz gapimiz kimlar uchundir ahamiyatga egamasdir, muammolar ham hal etilmas. Lekin bizda uyg'oq qalb bor, miyamizdagi o'y-xayollarimizni ayta oladigan minbarimiz bor. Fikrlashdan, o'ylashdan to'xtamaymiz. Zero, ular dillardan dillarga ko'chaveradi.

Norchuchuk NORMURODOVA

Fan olimpiadasining tuman bosqichi maktabimizda bo'lib o'tayotgani sabab dushanba kunidan maktabimiz onlayn o'qishga o'tkazildi. Bu yil 1-sinf olgan edim. O'quvchilarim 31 nafar. Afsuski, onlayn mashg'ulotlarda 15–20 chog'li o'quvchilar ishtirok etmoqda. Qolgan o'quvchilarim bilim ola olmayotganiga kuyinyapman. Bu yerda ota-onalarni ham ayblab bo'lmaydi. Hammasi o'rniga qaytgach, qolgan o'quvchilarim bilan qo'shimcha darslar olib boraman.

Madinaxon NIZOMOVA

Katta bayram haqida kichik maqola

Assalomu alaykum, hurmatli mushtariylar, eson-omonmisiz? "Shapaloq" o'ldi deb, aza ochib, oq kiyib, yig'lab-siqtab yuribsiz ekan. Avvalo, sizni bu qadar tashvishga qo'yganimiz uchun kechiring. Afsuski, biz yana qaytdik. "Ey, qorang o'chgur, butun boshli yoz o'tdi, direktorning eshigi yonida dars talashib, jiqqamush bo'lganimizda ham oramizga tushmading. Mayli, hech bo'lmasa, o'qituvchilar kunida bir enlik tabrik yozib qo'ysang o'larmiding…", deyishga haqqingiz bor. Ammo bizni ham tushuning-da. Ho-ov o'sha oxirgi marta uchrashganimizdan buyon ijara uy qidirib yuribman. Birovni tog'a, birovni amaki, gavdasi eshikka sig'maydigan, shallaqi xotinlarni ena deb ham ko'rdim, foydasi bo'lmadi. 300 dollardan kamiga bir boshpana yo'q(bizdan qaytmasa, Xudodan qaytar, agar tanishlar bo'lsa, bir yordam qiling). Shu sababdan siz bilan gurunglasholmadik. Bizdi o'y, botinkamizni Toshkentning kibor ko'chalari yeb tamom qildi. Oxiri yana tahririyatga keldik. Endi o'lmasak, uy topguncha biror kunjakda kun kechirib turamiz.



Bu yerda quruqdan-quruq yotaversang ham birovga yoqmaysan. Kun ora yarim qog'oz bo'lsa-da, maqola ko'tarib muharrirning eshigiga ko'rinib qo'yish kerak. Shu desangiz, aksiga olib, qo'l yozishdan chiqibdi. Bir gapni eplab qovushtirolmayapman. Egasini aldab-suldab chaqirsam, kesimi qochib ketyapti. Bugun nima bo'lganda ham biror narsa qoralamasam bo'lmaydi. Hech bo'lmasa, xalqimiz intiq kutayotgan KATTA BAYRAM haqida. Xo'sh, unda boshladik. Bismillahir Rohmanir Rohim…

Derazani ochib qo'ysam, balki foydasi bo'lar, nima dedingiz? Undan qanotlari oppoq, arfa chalayotgan ilhom parilari ko'rinib qolsa ajab emas.

Derazaga yaqinlashganim hamon xayolga cho'mgancha tashqarini tomosha qiligim kelaveradi – tarki odat amrimahol. Unda butun boshli dunyoning bir bo'lagi mohir rassom tasvirlagandek ko'z oldingda namoyon bo'ladi. Ammo hozir men kuzatib turgan manzarani san'at asariga tenglashtirib bo'lmaydi. Mana, tashqarida kak-kak yo'talib, rangi zahil oktabr kezib yuribdi. Menga mung'ayib qarab turgan mana bu daraxtlarning ahvoli ham havas qilarli darajada emas. Qarama-qarshi tomonda qaysidir bir nashriyotning bobom qatori binosi(yashayapti snosni kutib). Pastda esa obuna dardida viloyatma-viloyat borib kelaverib, sillasi qurigan allaqaysi gazetalarga tegishli mashinalar mudrab yotibdi. Sal nariroqda esa kichikroq bufet va uning ichida gazetchilarning oyligi tushishini o'zlaridan ham ko'proq kutuvchi bir xola – bori shu.

Qishloqdaligimda derazamizdan tog'lar, adirlar, qaylargadir uloqib ketgan yo'l… va qishloqning o'z tashvishi bilan ovvora odamlari ko'rinardi. Men dunyoga derazamizdan qarab baho berar edim. Men uchun butun borliq mana shundan iborat edi. Hozir esa dunyo – gazetxonaning to'rtinchi qavatidagi derazadan ko'rinib turgan mana bu manzara.

Nyu-Yorkdagi ko'p qavatli uylar derazasidan turib, Afrikadagi och-nahor bolalar ko'rinmagani kabi, shaharlarimiz markazidagi hukumat binolari derazasidan ham mening nurab yotgan maktabim, katta o'g'lining botinkasini kiygancha u tomonga shoshib borayotgan o'qituvchi yoki mo'ltoni xaltani orqalagancha Rossiyaga ketayotgan mardikor ko'rinmaydi. Ehtimol, qimmat mashinalar shovqin solgancha o'tayotgan keng ko'cha, galstuk taqqan qorindor odamlar, qishin-yozin yam yashil bo'lib turadigan chiroyli bog'cha. Xullas jannatni eslatadigan bir manzara ko'rinar va ular butun boshli jamiyatga menga o'xshab derazadan qarab baho berayotgandir.

Sufeee, uzr, qadrdonlar, "to'xta" demasangiz mana shunday o'tlab ketadigan odatimiz bor. Chegaradan chiqsang ham, derazadan chiqma, deb bizga o'xshaganlarga aytsalar kerak. Sal qolsa maqola ham qulog'ini ushlab ketardi. Ilhom parisi qurg'ur bugun rosa noz qildi-da. Nima bo'lganda ham ilojini qilib biror narsa yozmasam bo'lmaydi.

Ijodiy imtihondan oldin, ko'rinishidan hech ilm odamiga o'xshamaydigan, semiz bir professor biz abituriyentlarga, insho qanday yozilishi xususida tayyorgarlik darsi o'tgan edi. Uning "Agar fikr kelmay qolsa ham qoralamaga nimalarnidir yozavering, barmoqlaringiz harakatlangach miyangiz ishlab ketadi, men ko'pincha shunday qilaman", degan gapi esimda qolgan. O'shanda hech sinab ko'rmagan ekanman. Balki bu olamshumul usulga ehtiyoj ham tug'ilmagandir. Ammo bugun butun mamlakatimiz intiq kutayotgan KATTA BAYRAM haqida maqola yozishni niyat qilib tahririyatga shaxdam qadamlar bilan kelgan, lekin tushga dovur peshonasini changallab bir satr ham yoza olmay o'tirgan men, chala muxbir uni sinab ko'rishga qaror qildim.

Mana, yarim soatdan beri jazavaga tushgan bastakordek, kompyuterim "klavish"larini niqtab o'tiribman. Ekranda insoniyat yaralganidan buyon hech qachon ishlatilmagan bir tilda juda dono fikrlar paydo bo'lmoqda(sening aqling yetmadimi, demak u "genialniy". O'sha domlaning qanday qilib professor bo'lganini endi tushundim). Hatto yozuvi lotin alifbosiga asoslangan bu tilni biznikidan farqli o'laroq do'konlar manglayida ham imlosi buzilgan holda uchratmaysiz...

Va nihoyat, hurmatli do'stlar, maqola ham deyarli bitib qoldi. Faqat epini keltirib bayram komissiyasining ko'ngliga tegib ketadigan joylarini randalab, oxiriga ismni yozib qo'ysam bo'lgani.

Bilib turibman "kuni bo'yi bizning boshimizni qotirib bu nima yozdi ekan?" deb juda qiziqyapsiz. Mayli, sazangiz o'lmasin, maqolamning kirish qismidan bir abzas sizga ilinaman. Muharririmiz eshigidan omon chiqsa, davomini bayramga yaqin sonlarimizdan birida o'qirsiz:

"awunkhl kfrcwejhrg kcawer fkhqagwevrk jhawefhgas Kkjqwhbr kcfqubgw2ika fwidyflihdwhrtlkjherg;dljwqdkjawhdjhogwyegbcfousgnpcfiqhyenpifgqonwuigedlWUDXPQUWEGHPXEFOQTHXT ijhuihiugituafwedfcou;pgugascyhdbygqwdihcghsdvuasfcgaxsdd czsreqazdvsedgfnu sgpospedrfgafdscyqds cikldj shgf lahgwsdfhgFW DJhgcg sdfxAFSDX fdhfgv hbdslfgkj dlrgkjh;…".

Tkjaghdo JKJHKHU

Televideniye ma'naviyat ko'zgusimi yoxud reklama bozori?

O'tgan XX asrda kashf qilingan televizor mo'jizaning o'zginasi edi. 90-yillarda bor-yo'g'i 3-4 ta davlat telekanallaridagi ko'rsatuvlarni zo'r ishtiyoq bilan oilamiz davrasida kuzatib borar edik.

Bu kanallardagi ko'rsatuvlar va hattoki reklamalarni kuzatish jarayonida noqulaylik tug'ilmasdi. Hozir-chi? Hozir telekanallardagi madaniy-ma'rifiy, ko'ngilochar dasturlar, tarbiyaviy ahamiyatga ega ko'rsatuvlar efir orqali o'z tomoshabiniga ega bo'lyapti. Lekin guruch kurmaksiz bo'lmaganidek, ayrim nodavlat telekanallaridagi saviyasi past yengil-yelpi ko'rsatuvlarga ko'z yumib o'tib ketolmaysiz. Masalan, "Xafa bo'lish yo'q" ko'rsatuvi turli yoshdagi aktyor va aktrisalarni qiyin vaziyatga solishi ekran oldidagi insonning ham g'azabini keltiradi. Ko'rsatuvni tomosha qilayotgan yoshlar mentalitetimizga xos odob-axloq normalarini, kattaga hurmat, kichiklarga izzatda bo'lishni shu mantiqsiz ko'rsatuvdan o'rganadimi? Bunday saviyasi past ko'rsatuvlar, yengil-yelpi qo'shiqlar butun millat yoshlariga salbiy ta`sir ko'rsatmaydi, deb hech kim kafolat berolmaydi.

Yana televideniyeda berilayotgan ayrim nomaqbul reklamalarga nima deysiz? XXI asr texnika taraqqiyoti ko'plab sohalarning rivojlanishiga sababchi bo'ldi. Bunday tezkorlik bilan o'sish bozorda sog'lom raqobat paydo bo'lishiga olib keldi va reklamaga bo'lgan ehtiyoj sezilarli darajada o'sdi. Bu quvonarli hol, albatta. Chunki mamlakatimizda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, reklama sohasini rivojlantirish bo'yicha televideniye yetakchi vazifani amalga oshirmoqda. Biroq ayniqsa, nodavlat telekanallarda berilayotgan ayrim reklamalar oilada, ota-ona yoki qaynota-qaynona oldida noqulay vaziyatga solib qo'ymoqda. Hatto ayollar gigiyenik vositalarini ham telekanallarda reklama qilishmoqda.

Hozirgi zamon bolajonlari juda qiziquvchan. Reklamani ko'rib "bu nima, nima qilinadi, nimaga kerak?" deya bergan savollari ko'plab onalarni javob topolmay sarosimaga tushirib qo'ymoqda. Reklamalar telekanallarga foyda keltiradi, lekin yosh avlodning tarbiyasiga-chi?

Ba'zi telekanallardagi reklamalarda aktrisalarimizning tungi kiyimda chiqishiga nima deysiz? Birgina "OKEYK" shirinligi reklamasini bog'cha bolasi orqali ham qiziqarli, diqqatni jalb qiladigan qilsa bo'lardi-ku. Ibo-hayo timsoli hisoblangan o'zbek ayolining g'arb ayollariga taqlidi shu reklama orqali har bir xonadonga kirib borishi shartmidi? Mana shu kabi reklamalar turli yoshdagi fuqarolarimiz ma'naviyatiga jiddiy xavf soladi. Bir uyaladi, ikki uyaladi, so'ng moslashib yuzi qotyapti, taqlid qilyapti. Momolarimizda, ota-bobolarimizda shakllanib kelgan or-nomus, uyat deb atalmish tuyg'u asta-asta so'nib boryapti. Deyarli ko'plab telekanallarda jurnalistlarning kiyinish madaniyati, studiyalarda, sahna bezaklarida milliylikning ufurishi, tarbiyaviy ahamiyatga ega ko'rsatuvlar va milliy seriallar televideniyening talabi bo'lganidek, reklamalarga ham shu talabni qo'ysa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Shunda telekanalning katta-yu kichik yoshdagi muxlislari doirasi kengayar edi. Telekanallar odob oynasi, ma`naviyat oynasi, ibrat oynasi bo'lsa, nur ustiga nur bo'lar edi.

Sayyora NAZARBEKOVA

Bu muammoni hal etish uchun esa yana masala o'z-o'zidan dars stavkasini 20 soatdan 16–18 soatga tushirishga borib taqaladi.

Xalq ta'limi vazirligi diqqatiga!

Adabiyot darsiga muhim to'ldirish...

Prezidentimiz tashabbusi bilan yoshlarni yuksak ma'naviyatli, komil insonlar etib tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bir necha yil bo'ldi, kitobxonlik tanlovlari o'tkazilib, g'oliblar rag'batlantirilmoqda.

Xalq ta'limi sohasiga katta mas'uliyat yuklanib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 26-martdagi qarori ijrosini ta'minlash hamda barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi Vazirligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, O'zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi, O'zbekiston Yozuvchilari uyushmasining qo'shma qarori bilan 2021-yil 1-apreldan e'tiboran har bir umumiy o'rta ta'lim muassasalarida 0,5 shtat birligida ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi lavozimi joriy etildi.

Bu xayrli tadbir, albatta, tahsinga sazovor. Targ'ibotchilar barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan sog'lom etib tarbiyalashga o'zlarining munosib hissalarini qo'shishi tabiiy, lekin dars jadvalidan tashqari, 0,5 shtat birligida faoliyat olib boradigan targ'ibotchilar qanchalik muvaffaqiyatga erishadilar, bu yog'i qorong'u...

Targ'ibotchilar ishi samarali bo'lishi uchun o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchilari bilan yaqin hamkorlikda ish olib borishlari kerak. Vaziyat taqozosi bilan, barcha umumiy o'rta ta'lim muassasalarida adabiyot fani darslari bir qadar isloh qilinishi lozim, deb hisoblaymiz.

Ma'lumki, adabiyot darsliklari allaqachon islohtalab holda, o'tgan asrda yaratilgan asarlar mualliflari hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan. Darsliklardan o'rin olgan ulug'larimizning ijodiga hech bir xusumatimiz yo'q, lekin yoshlar bugungi adabiyotdan ham xabardor bo'lish huquqiga egadirlar. Axir mustaqillik davri adabiyoti darsliklarda aks etmagan, yoshlar faqat o'tmish adabiyoti bilangina tanishib, maktab ostonasini tark etishadi. Katta hayot sari qadam qo'yayotgan yoshlar bugungi reallik haqida chala tasavvur bilan qayergacha boradilar, qanchalik zafarlar qucha oladi, gumonimiz bor. Ayni damda darsliklarni to'la mukammal holda yaratish imkoni cheklangandir, balki. Shunday vaziyatda yoshlar shuurida hayot haqida to'la tasavvur tug'dirish yo'lida, bizningcha, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari tashabbusni o'z qo'llariga olishi kerak.

Har bir adabiyot darsining so'ngida 10 daqiqa vaqt ajratilib, o'quvchilarga bugungi adabiyotning zabardast vakillari hayoti, faoliyati va ijodi haqida qisqacha ma'lumot berib o'tish maqsadga muvofiq. Albatta, o'qituvchilarga ma'lum qiyinchiliklar, noaniqliklar xalaqit beradi, chunki o'qituvchilarning o'zlari bugungi real adabiyot bilan unchalik tanish emas. Bu bilan biz adabiyot o'qituvchilarining saviyasi past, demoqchi emasmiz. **Ayrim hollarda ularning yangi asarlar bilan tanishish imkoni bo'lmaydi.Chunki oladigan kam oylik maoshlari turmush tashvishlaridan ortmaydi. Kitob sotib olishga qo'llari kaltalik qiladi, shuning uchun ham Xalq ta'limi vazirligi tomonidan maktablarning kutubxonalari arzirli asarlar va bosma nashrlar bilan ta'minlansa, adabiyot o'qituvchilari adabiy yangiliklar bilan yaqindan tanishib, yorug' yuz bilan o'quvchilarga yuzlanish imkoniga ega bo'lardi.**

Bu xayrli, ezgu tashabbusni amalga oshirish uchun adabiyot o'qituvchilaridan, Prezidentimizning oqilona siyosatini qo'llab-quvvatlab, fidoyi bo'lishlari, jonbozlik ko'rsatishlari talab etiladi.

Hammamizning yagona maqsadimiz kelajak avlod uchun ozod va obod Vatan barpo qilish ekan, bunyodkorlar — malakali kadrlar maktab partasidan malaka oshirib borishlari kerak emasmi? Farovon hayotni orzu qilamiz, farovonlik osmondan tushmaydi, uni biz o'zimiz, qolaversa, biz ta'lim va tarbiya berayotgan yoshlar bunyod etadilar. Shunday ekan, belni mahkam bog'lab, harakat qilishimiz, olg'a intilishimiz, davr bilan hamnafas bo'lishimiz kerak.

Yorqin umidlar bilan:

Bahrom G'OYIB (Gaybishov),
Yashnobod tumanidagi 215-maktabning ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchisi,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, shoir, tarjimon;
Kimyo HAZRATOVA,
Yashnobod tuman XTB ona tili va adabiyot fani metodisti;
Muzaffar ILASHEV,
215-maktab direktorining madaniy-ma'naviy masalalar bo'yicha o'rinbosari;
Umida RAZZOQOVA,
215-maktabning o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi;
Barno SODIQOVA,
215-maktabning o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi;
Lobar ASLONOVA,
215-maktabning o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi;
Zohida QURBONOVA,
215-maktabning o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi

O'qituvchi minbari

Dars taqsimoti

yoxud an'anaviy avgust janglari haqida

Ma'lumki, dars taqsimoti hozir ham, bundan oldin ham ta'lim tizimi va maktablar faoliyatidagi eng dolzarb masalalardan bo'lgan. Keyingi yillarda ham shunday bo'lishi mumkin. Ammo...

Salkam qirq yillik pedagogik tajribaga ega o'qituvchi sifatida dars taqsimoti jarayonlarini ko'p bora kuzatib, o'qituvchilar orasida kinoyali iboraga aylanib ulgurgan "An'anaviy avgust janglari"da ishtirok etganman. Dars taqsimoti muammosi ta'lim tizimida, maktablar faoliyatida, o'qituvchi va o'quvchilar taqdirida juda katta ta'sirga ega. Sababi, bu jarayonda adolat va adolatsizlik, bilim va bilimsizlik, mahorat va ko'zbo'yamachilik,eng muhimi, o'quvchilar taqdiri kabilar to'qnashuvi yuz beradi.

Bunda har kim o'zicha haq. Halol rahbarlar tajribali va bilimdon o'qituvchilarning bor mahorati bilan bilim berishi uchun sharoit yaratsa, korrupsioner rahbarlar esa ayrim layoqatsiz o'qituvchilar hamda tanish-bilishlariga ko'proq dars ajratish hisobiga cho'ntak to'ldiradi. Natijada qadrdon hamkasblar, ustoz-shogirdlar o'rtasida gina-kudurat paydo bo'ladi. Chunki dars taqsimoti o'qituvchilar uchun bir yil davomida qancha maosh olishini, oila byudjeti qanday shaklda bo'lishini belgilab beruvchi jarayon.

So'nggi yillarda jamiyatimizda va ta'lim tizimida shaffoflik sari sezilarli qadamlar tashlandi. Masalan, 2021-yil 17-sentabrdagi Vazirlar Mahkamasining 572-qarori ta'lim tizimi xodimlarining attestatsiyasi jarayonida inson omilini anchagina kamaytirishga xizmat qilishi tabiiy.

Yangi o'quv yiliga tayyorgarlik va adolatli dars soatlari taqsimoti masalalari yuzasidan "Zoom" dasturi, Facebook tarmog'i va Telegram messenjeri orqali ochiq, jonli muloqot o'tkazildi. Mazkur yig'ilish dars taqsimoti masalasida inqilobiy o'zgarishlarning debochasi bo'ldi desak, mubolag'a bo'lmasa kerak. Sababi, dars taqsimoti masalasida rahbarlarning huda-behuda aralashuvi, tobora urchib borayotgan korrupsion holatlar, qarindosh-urug'chilik, mahalliychilik illatlarining ildiziga zarba bera oladigan qadam qo'yildi.

Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tavsiya qilingan 19 ustuvorlik ketma-ketligi asosida amalga oshiriladigan dars taqsimoti qoidalarini belgilovchi 3271-sonli nizomga to'liq amal qilinishi ta'minlansa mazkur jarayondagi salbiy holatlarga deyarli barham beriladi(agarda bunga erishilsa). Ya'ni, maktab rahbarlarining ta'siri va "yuqori"dan "iltimos" va "qo'ng'iroq"lar yo'qolsa...

Aslida o'qituvchi o'z haq-huquqini talab qila bilishi lozim. Chunki qonimizga singib ketgan andisha, rahbarlardan hayiqish, o'z huquqini bilmaslik yoki talab qilolmaslik kabilar mazkur nizomning to'laqonli joriy etilishida to'siq bo'lishi mumkin.

Endi taqsimot mezonlarining texnik tomonlariga bir e'tibor bersak. Mazkur taqsimot mezonlarining maksimal miqdori bir yarim stavka dars soatlari, ya'ni yuqori sinflarda 30 soat, boshlang'ich sinflarda esa 27 soat qilib belgilangan. To'g'ri, bir qarashda bu miqdor unchalik yomon emas. Qonunchilikda belgilangan bir o'qituvchi o'tishi mumkin bo'lgan maksimal dars soati miqdoriga teng. O'qituvchi bir yarim stavka dars o'tishi yaxshi. Ya'ni, maoshi ko'tariladi. Ammo har bir o'qituvchining bir yarim stavka darsni o'tishida, dars soatlarini "Dars jadvali"ga joylashtirishda qator muammolar yuzaga keladi. Boisi, 30 soat darsni dars jadvaliga joylashtirish deyarli imkonsiz. Holatni yuqori sinflar misolida ko'rib chiqsak.

Ma'lumki, yuqori sinflarda o'qituvchilar haftasiga 30 soatgacha dars o'tishi mumkin. Ammo amaldagi Xalq ta'limi vazirligining 297-buyrug'iga ko'ra 5-sinflarda haftasiga 28 soat, 6-sinflarda 32 soat, 7-sinflarda 34 soat, 8-sinflarda 33,5 soat, 9-sinflarda 34,5 soat, 10-11-sinflarda esa 30 soatdan dars soatlari ajratilgan. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, faqatgina 6–9-sinflarda jadvalga ayrim kunlardagina 6 soatdan dars qo'yish mumkin. O'qituvchilar esa haftasiga 5 kun dars o'tishi mumkin. Chunki haftada bir kun pedagoglar uchun uslubiy kun sifatida belgilangan. Endi muammo nimada ekanligini ko'pchillik anglab yetgan bo'lsa kerak. Bu muammoni hal etish uchun esa yana masala o'z-o'zidan dars stavkasini 20 soatdan 16–18 soatga tushirishga borib taqaladi. Agar shunday bo'lsa, bu nafaqat yuqoridagi nuammolarni hal etishi, balki ta'lim sifatini oshirishga ham xizmat qilishi mumkin.

Umuman olganda, joriy etilayotgan yangi dars taqsimoti tizimi, maktablarda sog'lom raqobat muhitini vujudga keltiradi va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Normamat ESHONQULOV,
Oltinsoy tumanidagi
63-maktabning tarix fani o'qituvchisi

Lekin bir o'qituvchi bir soatga ham bormaydigan dars vaqtida bir sinf o'quvchi bilan ham savol-javob o'tkazish, ham yangi mavzuni tushuntirib berishga ulgurarmikan?

O'qituvchi minbari

Samaradorlik muhim emasmi?

Umumta'lim maktablarida rus tili va xorijiy tillar sinf o'quvchilarini ikki guruhga bo'lish asosida o'qitiladi. Bu esa har bir o'quvchining shu fanni puxta o'zlashtirishiga imkon beradi. O'qituvchi, o'z navbatida, imkoniyatdan foydalanib o'quvchilarning mavzuni qay darajada o'zlashtirganini aniqlab, kuzatilgan kamchiliklar ustida ishlashga ulguradi.

Xo'sh, nega ona tili va adabiyot fani sinf o'quvchilarini ikki guruhga bo'lish asosida o'qitilmaydi? Maktabda muayyan fandan bitta sinfga bir o'qituvchi dars o'tishini hisobga olsak, muallim 30–35 nafar o'quvchiga 45 daqiqada mavzuni qay darajada o'rgata oladi? Bola bir soatlik dars yuzasidan o'zlashtirishi lozim bo'lgan ma'lumotlar uchun 45 daqiqa kam emasmikan? Rus tili va xorijiy tillarni kam o'quvchi tashkil etadigan guruhlarga bo'lib o'qitish, hatto, ta'limning keyingi bosqichlari – oliy ta'limda ham davom etadi. Xabaringiz bor, ichki ishlar tizimiga ishga qabul qilishda asosiy sinovlardan biri ona tilidan diktantdir. Afsuski, aksariyat yigitlarimiz mana shu avvalgi bosqichdayoq «dumalashadi». Husnixatning xunukligi barobarida imloviy va yozma savodxonlik xatolari «namoyishi» bo'lajak xodimlarning maktab davrida ona tilidan olgan bilimlarining qay darajada ekanligini ko'rsatadi. Ushbu muammolarni bartaraf etish va oldini olish uchun umumta'lim maktablarida ona tili va adabiyot darslari ikki guruhga bo'lib o'qitilishi maqsadga muvofiq. Fikrimni asoslash uchun bir nechta sabab keltirib o'tsam. Birinchidan, o'quv rejasidagi morfologiya, sintaksis, morfemika va leksikologiya singari bo'limlar uchun ajratilgan mavzularni 35 nafar o'quvchiga 45 daqiqa davomida yetkazib berish mushkul. Ikkinchidan, o'tilgan mavzu o'quvchining xotirasida saqlanib qolishi uchun o'sha mavzu yuzasidan keyingi darsda savol-javob o'tkazish lozim. Lekin bir o'qituvchi bir soatga ham bormaydigan dars vaqtida bir sinf o'quvchi bilan ham savol-javob o'tkazish, ham yangi mavzuni tushuntirib berishga ulgurarmikan? Uchinchidan, bir o'qituvchi dars davomida barcha o'quvchilarning nima bilan mashg'ulligini birdek nazorat qila olmasligi turgan gap. Bu holda o'quvchilarda o'z-o'zidan sustkashlik kuchayadi. Qarabsizki, fanga ishtiyoq, e'tibor kamayadi. Ayrim hamkasblarimizning fikricha, har qanday muammoning yechimi yangi muammolarga sabab bo'ladi. Balki shuning uchun ona tili va adabiyot fani o'qituvchilarining muammosi yechimi ancha yillardan buyon paysalga solinib kelinar. Lekin, unutmaslik lozimki, aslida bir necha yillik taraqqiyot mantig'i ham mana shunda. Nazarimda, yuqoridagi kabi muammolarning eng samarali yechimi — o'quvchilarni ikki guruhga bo'lib o'qitish. Zero, har bir o'quvchining fanni puxta egallashi, kelajakda olgan bilimlarini amaliyotga joriy eta olishiga erishish barcha ona tili va adabiyot fani o'qituvchilaridan yuksak mas'uliyat talab etadi.

Dilfuza UMAROVA,
Mirzo Ulug'bek tumanidagi matematika, fizika-astronomiya va informatika fanlariga ixtisoslashgan davlat umumta'lim maktabining o'zbek tili fani o'qituvchisi

Iftixor

Al-Xorazmiy izdoshlarini tarbiyalaymiz!

Dunyo ilmi tamaddunida ajdodlarimizning o'rni va xizmati beqiyos. Jumladan, vatandoshimiz Al-Xorazmiy matematika fanining asoschisi va uning rivojiga munosib hissa qo'shgan olim sifatida dunyo ahli tomonidan tan olingan. Yurtboshimiz birinchi Renessans asoschilari safida Al-Xorazmiy nomini alohida e'tirof etgani bejiz emas.

Keyingi yillarda mamlakatimizda matematika fanini o'qitishga e'tibor kuchaymoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 7-maydagi qarori ana shu e'tiborning amaldagi ifodasidir.

Ayni kunda mazkur qarorning ijrosini ta'minlash maqsadida Jizzax viloyatida ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Jizzax shahridagi 6-maktab ham matematika faniga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabiga aylantirildi. 2021-2022-o'quv yili uchun qabulga 68 nafar o'quvchidan ariza tushdi. Davlat test markazi tomonidan o'tkazilgan onlayn test sinovlari asosida 5-sinfga 30 nafar o'quvchi qabul qilindi.

Hozir 1705 nafar o'quvchi tahsil olayotgan maktabimizda ta'lim-tarbiya ishlarini to'g'ri tashkil etish uchun barcha shart-sharoit yaratilgan. 128 nafar pedagogning 11 nafari matematika o'qituvchisi. Ixtisoslashgan sinfda haftasiga 7 soat matematika darsi o'tilyapti. O'quvchilarga birinchi toifali matematika o'qituvchisi Gavhar Ismoilova saboq bermoqdi.

Matematika darslari zamonaviy innovatsion va axborot texnologiyalari asosida olib borilmoqda. O'qituvchi zarur metodik qo'llanmalar bilan ta'minlangan. Dars jarayonida ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar va qo'shimcha adabiyotlardan foydalanilmoqda. Darsdan keyingi to'garaklarda matematika bilan birgalikda kimyo, biologiya, informatika va axborot texnologiyalari, xorijiy tillardan ham qo'shimcha mashg'ulotlar yo'lga qo'yilgan.

Shahnoza OTAMURODOVA,
Jizzax shahridagi 6-IDUM direktorining o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari

Odatdagidek ertalab maktabga borishga taraddud ko'rayotgandim. Telefonim jiringladi. Tuman xalq ta'limi bo'limidan Nukus shahriga yetib borishimni aytishdi...

Bir kunda taqilgan qo'shaloq medal

ta'lim va tarbiyani uyg'un olib borishimga kuch-g'ayrat beradi

Keyin bilsam Prezidentimizning "O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan ta'lim-tarbiya tizimida alohida o'rnak ko'rsatgan xodimlardan bir guruhini mukofotlash to'g'risida"gi farmonida mening ham ismim bor ekan. Nukus shahrigacha 150 kilometr masofa bor. Mashinada ketayotib rasmiy saytlardan Prezidentimiz farmoni bilan tanishdim. "Shuhrat" medali bilan taqdirlanganlar orasida tumanimiz nomi, maktabimiz raqami va qadrdon sinfimgacha ma'lumotlar keltirilgani meni behad quvontirdi.

"Qoratog'" oralaridan o'tuvchi ravon yo'llardan borarkanmiz ijtimoiy tarmoqlar orqali yaqinlarim va kasbdoshlarimdan tinimsiz tabriklar kela boshladi. Hayot faqat shodliklardan iborat emas. O'tgan yili oilamizdagi fojiyaviy halokatdan so'ng ko'nglim cho'kib, umidsiz qolgan kezlarimda ham ana shu tanishlarim ko'nglimga taskin berish uchun tinimsiz xabarlar jo'natgandi...

Albatta, oila a'zolarim va kasbdoshlarimning qo'llab-quvvatlashi natijasida yanada kuchliroq ishlashga harakat qildim. Yaratilgan sharoitlardan foydalanib, oila a'zolarimiz bilan birgalikda qishlog'imizda xususiy bog'cha ochish ishlariga kirishdik. Mustaqilligimizning 30 yilligi arafasida o'z uyimda oilaviy uy-bog'cha ochishga muvaffaq bo'ldik. Maktabdagi faoliyatimni ham yanada jonlantirib, yozgi ta'til davrida qo'shimcha to'garaklar tashkil qildim.

Nukus shahridagi tantanali tadbirda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi M.Kamalov yig'ilganlarni 1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni bilan qizg'in muborakbod etdi. Menga ham «Shuhrat» medalini tantanali ravishda topshirdilar.

Kamtarona mehnatlarim yuksak baholanganini, o'qituvchi bo'lganimdan yana bir bor faxr tuyg'usini his qilib tumanimizga yetib bordim. Buni qarangki, tumanda yana bir shodiyona, quvonchli xabar eshitdim. Bayram munosabati bilan tashkil qilingan tantanali tadbirda "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi a'lochisi" ko'krak nishoni bilan taqdirlandim.

Bayram shodiyonalaridan qaytar ekanman, bundan 4-5 yil ilgari aynan shu kunlarda paxta dalasida changga botib, hatto traktorlarga minib uyimizga yeta olmay yurgan kezlarimiz yodimga tushdi. Endi u kunlar tarixda qoldi.

Bugun o'qituvchilar bayram tantanalarida e'zozlanmoqda. Fayzli dasturxonlar to'riga chorlanmoqda. Bunday ardoqni ko'nglimda asrab, ko'chalardan yurib boraman. Bir kunda ko'ksimga taqilgan qo'shaloq medal ta'lim va tarbiyani uyg'un olib borishimga kuch-g'ayrat beradi, ishonchimni oshiradi. Keng ko'chalarni yoritib turgan chiroqlar xuddi biz o'qituvchilarning kelgusi faoliyatimizga nurli yo'l ko'rsatayotgandek tuyuladi go'yo.

Oysha KARIMOVA,
Ellikqal'a tumanidagi 40-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi, "Shuhrat" medali sohibi

Xorij tajribasi

"Hayotdan fizikaga, fizikadan jamiyatga"

Mamlakatimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan xalqaro matematika va fizika maktablari, fizika va matematikaga ixtisoslashgan maxsus maktablar tashkil qilinmoqda. Bu maktablar uchun yangi darslik yoki o'quv qo'llanmalariga kuchli ehtiyoj sezilmoqda. Bu borada xorijiy mamlakatlar tajribasidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy ta'lim tizimini isloh qilish va uni jahon ta'lim muhitiga singdirish zarurati sharoitida zamonaviy xorijiy ta'lim amaliyotini bilish, xorijdagi ta'lim sohasidagi jarayonlarni tahlil qilish, muammo va tendensiyalarni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy darsliklar, o'quv qo'llanmalari, kitoblar, davriy nashrlar, maktab uchun elektron resurslarni yaratish ta'limni takomillashtirish bilan birga eng muhim yo'nalish hisoblanadi, chunki ushbu manbalar maktab o'quvchilarini ta'lim jarayonida faol ishtirok etishga tayyorlashning zamonaviy darajasini ta'minlaydi.

Zamonaviy ta'lim maqsadlariga javob beradigan yangi avlod darsliklari va o'quv qo'llanmalarini yaratish masalalari dunyoning ko'plab mamlakatlarida allaqachon hal qilingan. Masalan, Xitoyda ushbu yo'nalishda to'plangan tajribani o'rganish va tahlil qilish maktablar va pedagogika oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari va talabalari uchun qiziq bo'lishi tabiiy. Ayni paytda, Xitoy turli sohalarda, shu jumladan ilm-fan va texnologiyada sezilarli yutuqlarga erishgan mamlakatdir. Bunda davlatning umumiy ta'limga va xususan fizika ta'limiga bo'lgan e'tiborining ahamiyati katta. Xitoyda 1986-yildan beri mamlakatni modernizatsiyalashda ta'limning ustuvor o'rni qonunchilik bilan mustahkamlandi va 1997-yili XXR hukumati "Ilm va ta'lim davlatning gullab-yashnashiga olib keladi" shiorini e'lon qildi. 2001-yil iyun oyidan boshlab Xitoyda asosiy ta'lim darajasida o'quv dasturlari isloh qilinmoqda, uning asosiy maqsadi har bir o'quvchining bilim darajasini rivojlantirish va shu bilan butun xalqning sifat darajasini ko'tarish bo'lib, Xitoyning boy inson resurslariga ega kuchli davlatga aylanishini tezlashtirmoqda.

XXRda tabiatshunoslik fanlarini o'qitishning muhim tendensiyasi – bu ilm-fan va hayotning birligi, ta'lim mazmuni va talabalar hayoti o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash hamda rivojlanishning obyektivligi chegaralaridan chiqib ketishga intilishdir. Shunday qilib, fizikadagi yangi standartlar "Hayotdan fizikaga va fizikadan jamiyatga" degan asosiy tushunchani ta'kidlaydi. Xitoy maktablarida bolalarni fizik hodisalar, jarayonlar dunyosi, ularning kundalik hayotda va texnikada qo'llanishi bilan tanishtirish boshlang'ich maktabning uchinchi sinfidan oltinchi sinfigacha "Fan" kompleks o'quv predmeti doirasida amalga oshiriladi. To'liq bo'lmagan o'rta maktab bosqichida (7–9-sinf), mahalliy ta'lim organlari va maktab rahbariyatining qaroriga qarab, fizika ta'limi yoki alohida o'quv predmeti, yoki "Fan" tarkibida amalga oshiriladi. O'rta maktabda (10–12-sinf) ta'lim tabiiy va gumanitar profil bo'yicha olib boriladi. Oliy o'rta maktabda gumanitar fanlar talabalari fizikani ikki yil (10 va 11-sinf) davomida, tabiiy fanlar yo'nalishi talabalari esa uch yil mobaynida o'qiydilar. Xitoyliklar bolani dunyoni bilishga tayyorlashning doimiy jarayonini, fizik hodisalarni o'rganishni ta'minlaydigan bosma mahsulotlarni yaratishga jiddiy yondashmoqda. Mamlakatda turli yoshdagi bolalarga mo'ljallangan kitoblar nashr etiladi. Ular taqdim etilgan materialning tuzilishi, darajasi va hajmi, matn va illyustratsion material taqdimoti shaklida farqlanadi. Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar uchun nashrlar orasida:

– bolalar uchun kitoblar (oddiy fizik eksperiment asosida fizik hodisalar olami bilan tanishtirish);

– kichik yoshdagi o'quvchilar uchun darsliklar (3–6-sinf);

– o'rta maktabning birinchi bosqichi o'quvchilari uchun fizika darsliklari (7–9-sinf);

– o'rta maktabning birinchi bosqichi o'quvchilari uchun fizika bo'yicha ma'lumotnomalar (7–9-sinf);

– ikkinchi bosqich (10–12-sinf) o'rta maktab o'quvchilari uchun fizika darsliklari;

– o'rta maktabning birinchi va ikkinchi sinf o'quvchilari fizika darsliklari uchun multimedia ilovalari;

– o'rta maktab o'quvchilari uchun fizika bo'yicha qo'shimcha ma'lumotnomalar (10–12-sinf);

– turli yoshdagi talabalar uchun ilmiy va o'quv jurnallari, gazetalar va boshqalar.

XXRda nashr etilgan fizika bo'yicha darsliklarga qisqacha tavsif beramiz. Xitoyda fizik hodisalar dunyosi bilan tanishish erta bolalikdan boshlanadi. Masalan, "Bolalar uchun oddiy fizik tajribalar" turkum kitoblari nashr etilmoqda. Ma'lumki, fizik eksperimentni o'tkazish — bu bolalarning fizik hodisalar va jarayonlarning mohiyatini tushunishi, ularda eksperimental ko'nikma va qobiliyatlarni shakllantirish, fanga qiziqishni rivojlantirishga yordam beradigan faoliyat turlaridan biridir.

"Bolalar uchun oddiy fizik tajribalar" turkumi to'rtta yaxshi tasvirlangan kitobdan iborat (kitob hajmi 58 betdan oshmaydi, o'lchami maktab daftariga o'xshaydi):

1. "Kuch".
2. "Havo, gaz, suv".
3. "Ovoz, yorug'lik, iliqlik".
4. "Elektr, magnit".

Bolalarga taqdim qilingan kitob taxminan oltmishta murakkab bo'lmagan xavfsiz va shu vaqtda qiziqarli ma'lumotli fizik tajribalarning tushunchalari va tavsifidan tashkil topgan. Tavsiya etilgan barcha tajribalarda bolalarning kundalik hayotidagi qulay buyumlar jihoz sifatida ishlatiladi.

Har bir oddiy tajriba uchun matnda quyidagi asosiy fikrlar qayd etilgan: ishlatilgan materiallar va jihozlar, eksperiment o'tkazilishi, tajriba natijalari, xulosalar. Misol sifatida, quyida "Bolalar uchun oddiy fizik tajribalar" turkumidagi "Quvvat" va "Tovush, yorug'lik, issiqlik" kitoblaridan parchalar keltirilgan.

Materiallar: ikki varaq qog'oz; bo'sh shisha; suv bilan to'ldirilgan shisha.

Tajriba.

1. Bola bo'sh shishani olib, bo'g'zini varaq bilan yopadi, tezda shishani teskari o'giradi – qog'oz uning qo'lidan keyin tushadi.

2. Bola suv bilan to'ldirilgan shishani varaq bilan yopadi, shuningdek, tezda shishani ag'daradi.

Natijalar. Shishadan suv to'kilmaydi, qog'oz varag'i tushmaydi.

Xulosa. Bo'sh shisha ichidagi va tashqaridagi bosim bir xil, shuning uchun qog'oz o'z tortishish kuchi ta'sirida erkin tushadi. Teskari to'ldirilgan shisha ichidagi bosim tashqi bosimdan kam, shuning uchun qog'oz darhol tushmaydi.

Diqqat.

1. Shishani yuqori qismiga qadar suv bilan to'ldirish kerak.

2. Shishani tezda ag'darish kerak.

3. Shishadagi suv "tinchlangandan" keyin qo'lingizni qog'oz varag'idan uzing.

Stakanlardan qaysi biri tezroq isitiladi?

Materiallar: har xil materiallardan (metall, plastmassa, emal, bambuk, chinni) tayyorlangan stakanlar to'plami.

Tajriba. Bola barcha stakanlarni ketma-ket 70° C suv bilan to'ldiradi. Stakanlarning tashqi yuzasiga tegib, ulardan qaysi biri tezroq qizishini aniqlaydi.

Natijalar. Metaldan tayyorlangan stakan tezroq qiziydi.

Xulosa. Metallar yaxshi issiqlik o'tkazuvchanligiga ega. Metaldan tashkil topmagan jismlarning issiqlik o'tkazuvchanligi yomon, shuning uchun ular sekinroq qiziydi.

Mualliflarning fikriga ko'ra, "Bolalar uchun oddiy fizik eksperimentlar" turkumidagi eksperimentlar fizik hodisalarni namoyish etadi, bolalarda eksperimental qobiliyatlarni shakllantiradi, ularning ixtiro qobiliyati va qiziquvchanligini rivojlantiradi, bu esa o'z navbatida fikrlashni rivojlantirishga va tafakkurni shakllantirishga yordam beradi.

Fizik hodisalar va jarayonlar, ularning kundalik hayotda va texnikada qo'llanilishi Xitoyda bir necha qismlarda nashr etilgan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun "Tabiat" darsligida yetarlicha batafsil berilgan. Har bir o'quv kitobi individual fizik hodisa va jarayonlarning mohiyatini ochib beradigan nazariy materiallardan tuzilgan; ba'zi tabiiy hodisalar haqida, insonning amaliy faoliyatida bilimlardan foydalanish to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlar, shuningdek, fan tarixidan olingan ma'lumotlar berilgan. "Tabiat" darsliklarining matnida o'ziga xos tabiiy hodisalarni aks ettiruvchi qiziqarli sodda tajribalarning tavsiflari keltirilgan va mustaqil ishlash uchun topshiriqlar berilgan. Ba'zi savollarga javoblarni to'g'ridan-to'g'ri darslikda maxsus ajratilgan joyga yozishlari mumkin.

O'rta maktab o'quvchilari uchun Xitoyda nashr etilgan fizika bo'yicha maxsus (darslikka qo'shimcha) darsliklar maktab o'quvchilariga fizika kursini mustaqil ravishda o'zlashtirish imkonini beradi. Ular, bir tomondan, fizikadagi asosiy bilimlarning ma'lumotnomasini aks ettiradi, chunki ular mavzu bo'yicha barcha bilimlarning asosiy elementlarini o'z ichiga oladi; boshqa tomondan fizika o'qitish nazariyasi va metodikasining so'nggi yutuqlari hamda hozirgi bosqichda maktab o'quvchilarining bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablarni hisobga olgan holda yozilgan. E'tibor bering, ushbu turdagi darsliklar Xitoyda deyarli barcha o'quv fanlari uchun nashr etiladi. Bugungi kunda ma'lumotnomalar to'plami XXRda maktab ta'limining barcha bosqichlarini qamrab oladi: boshlang'ich maktab, birinchi bosqichning o'rta maktabi va oliy o'rta maktab va individual ta'lim fanlari bo'yicha. Misol tariqasida, o'rta maktab uchun fizika bo'yicha qo'llanmalarni ko'rib chiqamiz, ulardan o'quvchilar ham o'rta maktabning fizika kursini o'qiyotganda va takrorlashda, ham o'qituvchi tomonidan o'quv jarayonini tashkil qilishda foydalanishi mumkin. To'liq o'rta maktabga kirishda (10–12-sinf) o'quvchilarni fan bo'yicha imtihonga tayyorlashda ma'lumotnomalar alohida o'rin tutadi. Darsliklarning tuzilishi quyidagicha: asosiy nazariy masalalar taqdimoti; odatdagi fizikaviy masalalar yechimini tahlil qilish va muhokama qilish; fizik tajriba; o'quv materialini umumlashtirish va tizimlashtirish; o'quvchilar uchun har xil turdagi topshiriqlar, ularga javoblar va tushuntirishlar berish. Darsliklarning eng katta nazariy qismida asosiy fizik tushunchalar ta'riflari, qonunlarning formulalari berilgan; fizikaning har bir bo'limi bo'yicha eng qiyin savollarni tahlil qiladi va tushuntiradi; u yoki bu fizik hodisaning amaliy qo'llanilishini ochib beruvchi material taqdim etiladi; odatdagi fizikaviy masalalar yechimi tahlili berilgan va tahlil qilish va yechish uchun bir vaqtning o'zida Xitoyning turli mintaqalarida (Dalian, Shanxay, Jilin va boshqalar) tekshirilgan fizik muammolar olinadi. Shunday qilib, qo'llanmada 228 fizikaviy muammo ko'rib chiqilgan va tahlil qilingan, shulardan 88 tasi mexanikadan; 22 ta termodinamika bo'yicha; 37 ta optika; 81 ta elektrodinamika bo'yicha. Qo'llanmalarda fizik tajribaga yetarlicha e'tibor berilgan: asosiy fizik asboblar va moslamalarning maqsadi, dizayni va ishlash prinsipi ochib berilgan; fizikaning turli sohalaridan bir qator muhim fizik tajribalar tasvirlangan; tabiatni bilish eksperimental usulining o'rni va xususiyatlari to'g'risida ma'lumot berilgan. Bu yerda o'quvchilarning o'ziga xos eksperimental bilim va ko'nikmalarini sinab ko'radigan test xarakterli topshiriqlar taqdim etilgan. O'quvchilarning fizik kattaliklar va ularning o'lchov birliklari, fizik hodisalar, jarayonlar va qonuniyatlar to'g'risidagi bilimlarini umumlashtirish va tizimlashtirish qo'llanmalarda jadvallar va diagrammalar shaklida amalga oshiriladi.

Darslikning nazariy qismining har bir paragrafi mavzu elementlari tarkibini yoritish uchun zarur bo'lgan asosiy sxemalar bilan boshlanadi. Bundan tashqari, qo'llanmaning nazariy qismining har bir paragrafida maxsus jadvalda ma'lum bir mavzuning har bir tarkib elementi uchun o'quvchilarning bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan aniq talablar ko'rsatiladi. Jadval o'quvchilar bilimlarni o'zlashtirishining quyidagi darajalarini aks ettiradi:

1) tushunish va yodlash;
2) tushunish;
3) xabardorlik va tushuntirish.

Shuningdek, mahorat va ko'nikmalarni o'zlashtirishning quyidagi darajalari:

1) o'lchash qobiliyatlari;
2) eksperiment o'tkazish;
3) ijodiy eksperimental mahorat.

Xitoyning fizika bo'yicha darsliklar va qo'shimcha darsliklar yaratish tajribasini O'zbekistonda ham fizika ta'limi sharoitida darsliklar yaratishda, didaktik materiallarni ishlab chiqishda qo'llash mumkin.

Obloqul QUVONDIQOV,
fizika-matematika fanlari doktori,
professor,
To'ychiboy TOSHBOYEV,
SamDU dotsenti,
Ma'murjon UBAYDULLAYEV,
Samarqand shahridagi
54-maktab fizika fani o'qituvchisi

Saylov – 2021

Saylov huquqi haqida nimalarni bilasiz?

24-oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi tarixida navbatdagi Prezidentlik saylovi o'tkaziladi. Mazkur saylovning shu kungacha bo'lgan saylovlardan eng asosiy farqi – pandemiya sharoitida yuz berayotgani bo'lsa, yana bir jihatdan mazkur saylov har doimgi muddatdan 2 oy oldinroq tashkil etilmoqda.

Ayni damda Prezidentlikka nomzodlarning barchasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro'yxatga olingan. Shuningdek, saylov okruglari ham tuzilganligi ma'lum qilingan. 14 ta saylov okrugidan jami 21 mln 266 ming 11 kishi ro'yxatga olingan. Bu hisob 35 mln.lik aholining qariyb 61 foizini tashkil etadi degani.

Mamlakatimiz ertasini, demokratik islohotlarimiz istiqbolini hamda Yangi O'zbekistonning mustahkam kelajagini belgilab berishga asos bo'lgan Prezidentlik saylovida ishtirok etuvchi saylovchilar saylov jarayonida quyidagi jihatlarga alohida e'tibor berishlari kerak:

Avvalo, O'zbekiston Respublikasida saylov umumiy, teng, to'g'ridan to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish orqali o'tkaziladi. Mazkur qoida xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalari asosida ishlab chiqilgan hamda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va Saylov kodeksida mustahkamlab qo'yilgan. Qiyoslash uchun ko'rishimiz mumkinki, Germaniya Federativ Respublikasining Saylov to'g'risidagi normativ-huquqiy hujjatida ham aynan "nomzodlar umumiy, bevosita, erkin, teng va yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi" deb belgilab qo'yilgan.

Umumiy saylov huquqi nima?

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qonunchilik palatasi deputatlari va mahalliy Kengashlar deputatlari saylovlari umumiy sanaladi, ya'ni saylov kuni **o'n sakkiz yoshga to'lgan** O'zbekiston Respublikasi fuqarolari saylash huquqiga ega bo'ladilar. Bunda fuqarolar jinsi, irqiy va milliy mansubligi, tili, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyi, ma'lumoti, mashg'ulotining turi va xususiyatidan qat'i nazar, teng saylov huquqlarini amalga oshiradilar. Yaponiya Konstitutsiyasining 14-moddasiga ko'ra: "Barcha yapon fuqarolari qonun bo'yicha tengdir va irqi, e'tiqodi, jinsi, ijtimoiy mavqeyi yoki oilaviy kelib chiqishi tufayli siyosiy, iqtisodiy yoki ijtimoiy muomalada kamsitishlar bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi".

Teng saylov huquqi qanday amalga oshiriladi?

Saylovda ishtirok etuvchilar ro'yxatiga kiritilgan har bir fuqaro saylov kuni bir ovoz berish huquqiga ega bo'ladi. Demak, siz o'zingiz istagan nomzod uchun bitta ovoz berish huquqingizni amalga oshirasiz. Agar fuqaro sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan yoki sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan bo'lsa, bunday shaxslar saylanishi mumkin emas(bu jihat faqat saylanuvchilar uchun amal qiladi).

Shuningdek, agar shaxs sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan yoki og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar sodir etganligi uchun sudning hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan bo'lsa, bunday shaxslar saylovda ishtirok eta olmaydilar.

To'g'ridan to'g'ri saylov huquqi nima?

Saylovchi sifatida ro'yxatga kiritilgan har bir shaxs bevosita o'zi tanlagan nomzodni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qonunchilik palatasi deputatlari va mahalliy Kengashlar deputatlari sifatida bevosita saylash huquqiga egadirlar. Bunda saylovchi saylov huquqini amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi vositalardan xoli ekanligi anglashiladi.

Yashirin ovoz berish

Saylovchi tomonidan o'z saylov huquqi amalga oshirilayotganda, saylovchining harakatlari, ya'ni biron nomzodga ovoz berishi jarayoni o'zi tomonidan erkin hamda boshqa shaxslardan yashirin tarzda amalga oshiriladi. Saylovchidan boshqa biror shaxs qaysi nomzod uchun ovoz berganligi haqidagi ma'lumotni olishga haqli emas. Yashirin ovoz berish saylovchining xohish-irodasi ustidan har qanday tarzda nazorat qilish imkoniyatini istisno etadigan tegishli sharoitlarni yaratish orqali ta'minlanadi. Yaponiya saylov qonunchiligiga binoan: "Yashirin ovoz berish saylovi ham kafolatlanadi. Saylovchi ovoz berishda ommaviy yoki xususiy ravishda o'z tanlovini e'lon qilish uchun hech qanday javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi".

Hurmatli saylovchi, umumiy, teng, to'g'ridan to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish orqali o'tkaziladigan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligi uchun saylovda o'z huquqingizdan foydalaning.

Javlon ZOILBOYEV,
TDYU "Ma'muriy va moliya huquqi" kafedrasi o'qituvchisi

Har bir darsini sifatli tashkil qilishni maqsad qilgan o'qituvchi mavzuni o'quvchiga qiziqarli yetkazish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishga astoydil harakat qiladi. Shu o'rinda haqli savol tug'iladi: innovatsion ta'lim nima? Maktablarda innovatsion ta'limdan foydalanishning qanday afzalliklari bor?

Maktabda mental arifmetika

Innovatsion ta'lim — ta'lim tizimida ilm-fan yutuqlaridan keng foydalangan holda o'quv fanining hayot bilan integratsiyasini oshirish.

Men ham o'zim faoliyat yuritadigan Uchtepa tumanidagi 106-maktabda boshlang'ich sinf o'quvchilariga dars jarayonlarida innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga harakat qilib kelaman. Xususan, hozirgi kunda keng ommalashayotgan mnemonika va

mental arifmetika texnologiyalaridan keng foydalanaman. Mnemonika (yunoncha mnemonika – eslab qolish san'ati) — sun'iy assotsiatsiyalar hosil qilish yo'li bilan esda olib qolishni osonlashtiruvchi va xotira hajmini kengaytiruvchi usullar tizimi.

Ushbu metod o'quvchining eslab qolish ko'nikmasi, aqliy qobiliyati, fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichlarini bir necha bor oshiradi.

Shuningdek, hozirgi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilariga mental arifmetikadan to'garak mashg'uloti ham olib boryapman. Mental arifmetikani o'quvchilar o'rtasida rivojlantirish orqali bolalarda "mantiqiy fikrlash", "vaziyatni to'g'ri baholay olish" kabi ko'nikmalarni rivojlantirish mumkin. Mazkur metod asosida 3-sinflar uchun matematika fanidan "90:30 ko'rinishidagi ifodalar" mavzusidagi ochiq darsim o'quvchilarda katta taassurot qoldirdi. Mazkur darsni kuzatgan Uchtepa tuman xalq ta'limi bo'limi boshlang'ich ta'lim uslubchisi Sh.Majidova va maktabimiz boshlang'ich ta'lim uslubbirlashma rahbari M.Abdullayeva ham aynan shu tizimni tumanning boshqa maktablarida joriy etish taklifini bildirdilar.

Muyassarxon AHMEDOVA,
Uchtepa tumanidagi
106-maktab o'qituvchisi

Ta'lim fidoyisiga ovoz beraman!

Davlatimizni yanada rivojlanishi uchun barcha sohalarda ilmga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi 2019-yil 8-oktabrdagi farmoni ham mana shu sohani yuqori pog'onaga ko'tarishga qaratilganligi bilan jamiki ilm ahli uchun qadrlidir. Ushbu Farmonda ulkan maqsadli vazifalar belgilab qo'yilganki, u shaxsan men uchun ham dasturulamal bo'lmoqda.

Bu o'zgarishlarni o'zim faoliyat yuritayotgan bilim dargohi misolida, ilm-fanni rivojlantirish, sport sohasiga juda katta e'tibor qaratilayotganligida ko'ryapman.

Buning natijasida sportchilarimiz dunyo miqyosida nufuzli musobaqalarda ishtirok etib, sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritib, mamlakatimiz salohiyatini butun dunyoga namoyon etayotganligida his qilyapman.

2021-yil 24-oktabrda bo'lib o'tadigan Prezident saylovida ilmiy sohaning ravnaq topishi yo'lida o'zim munosib deb topgan nomzodga ovoz beraman. Sizlarni ham saylovda faol ishtirok etishga chaqiraman.

Valixon ANASHOV,
O'zDJTSU
"Boks, qilichbozlik nazariyasi va uslubiyati"
kafedrasi katta o'qituvchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ta'lim muhitiga havas

Har bir maktab jamoasidagi muhit ushbu muassasadagi ta'lim-tarbiya sifatiga ijobiy ta'sir etadi. Shu paytgacha ko'pgina tashkilotlarda faoliyat yuritdim. Biroq maktab muhiti, ta'lim dargohining fayzi boshqacha tuyulaveradi. Maktabimiz direktori Gulnoz Mirboboyevaning jamoa bilan birgalikda ishlashi, pedagoglar bilan muomala madaniyati va qat'iyati e'tirofga loyiq. Bu yil maktabimizni bitirgan 117 nafar o'quvchining 89 nafari oliy o'quv yurtlariga o'qishga qabul qilindi.

Ta'lim muassasamizda 120 nafar pedagog o'zbek va rus tillarida faoliyat yuritayotgan bo'lsa, ularning har biri katta tajriba maktabini o'tagan malakali o'qituvchilardir. Ular o'quvchilar uchun turli fan to'garaklari tashkil etib, qo'shimcha bilim berishadi. Bolalar odatda darsdan keyin kutubxonaga kirib, turli adabiyotlarni mutolaa qilishadi. Bu yerdagi elektron bazadan ham yetarlicha ma'lumot va elektron kitoblar topish imkoniyati bor.

Maktabimizda tadbirlar, ijodiy uchrashuv va kechalar tez-tez o'tkazilib turadi. O'quvchilarimiz mana shunday kecha va uchrashuvlarda ma'naviy hordiq chiqarish bilan birga dunyoqarashlari va ma'naviyatini yuksaltirib borayotganligini ularning chaqnab turgan samimiy nigohlaridan uqib olish qiyin emas. Aslida, o'qituvchi har bir yosh niholning bekam-u ko'st o'sishiga yordam berishi lozim. Buyuk muallim, yozuvchi Abdulla Avloniyning "Bilimli bo'lsang, ma'naviyating butun bo'lsa, olam seniki" degan da'vatli gapi bizni ham g'ayrat-u shijoatda ishlashga undaydi.

Sabohat TO'XTABOYEVA,
Yunusobod tumanidagi
17-IDUMning o'zbek tili va adabiyot
fani o'qituvchisi

Mutaxassis minbari

Dunyoviylik va dunyoviy davlat tushunchasi va mohiyati

Bugungi kunda taraqqiyotning dunyoviylik yo'li – mustaqil O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy va konstitutsiyaviy maslagidir.

Zamonaviy o'zbek jamiyatida dunyoviylik tamoyili bir-biridan ajralmas uch qadriyatga asoslanadi:

– vijdon erkinligi;

– barcha din va diniy tashkilotlarning qonun oldida tengligi;

– dinning siyosatdan ajratilganligi.

Har bir dunyoviy davlatda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham dinga bo'lgan munosabat muayyan me'yoriy-huquqiy hujjatlar va qonunlar orqali tartibga solinadi. Jumladan, mamlakatimizda e'tiqod erkinligi va diniy bag'rikenglikni mustahkamlashda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonun asosiy mezon bo'lib xizmat qilmoqda.

Mamlakatimiz tarixida davlatchilik, davlat va din o'rtasidagi o'zaro munosabatlar uzoq o'tmishga borib taqaladi. Insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ushbu munosabatlarning mazmun-mohiyati xilma-xil bo'lgan. Davlat va din o'rtasidagi o'zaro munosabatlar masalasiga yondashuvlar bir xil bo'lmagan. Hozir ham bu holat saqlanib qolmoqda. Shu bois, din nima? Davlat nima? Ularning vazifalari nimalardan iborat? Ular o'rtasidagi munosabatlar o'tmishda qanday bo'lgan va hozir qanday? Dunyoviy davlatning dinga bo'lgan munosabati nimalar bilan belgilanadi? Unda diniy e'tiqodga qanday o'rin ajratilgan? Qolaversa, din va umum e'tirof etilgan tamoyillarga asoslangan demokratiya tushunchasi o'rtasidagi aloqalar qanday bo'lishi kerak, degan savollarga javob berish lozim bo'ladi.

Ushbu savollarga javob izlar ekanmiz, xalqaro hamjamiyatning mutloq ko'pchiligini tashkil qilgan dunyoviy davlatlar tajribasi, ular taraqqiyotining tamal toshi bo'lib xizmat qilayotgan g'oya aslo xudosizlikka asoslanmagani, yaqin o'tmishimizdagiga o'xshash dahriy jamiyatni anglatmasligiga amin bo'lamiz.

Ma'lumki, davlat o'z hududiga, suverenitetiga, hokimiyat va boshqaruv organlari, maxsus majburlov apparatiga ega, fuqarolardan soliq undiradigan, umummajburiy huquq, normalarni o'rnatadigan, zarur bo'lganda ularning ijrosini kuch ishlatish bilan ta'minlaydigan siyosiy tashkilotdir.

Davlatlar bir-biridan mohiyati, o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalari, boshqaruv, tuzilish shakli, siyosiy rejimi, davlat organlari va huquq tizimi, inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlanganlik darajasi, mafkurasi, dinga va boshqa e'tiqodlarga munosabati kabilar bilan farq qiladi.

Davlat – mulkchilik shakllarini belgilash, iqtisodiyotni rivojlantirish, fuqarolarning ijtimoiy himoyasini ta'minlash, madaniy-ma'rifiy ishlarni tashkil qilish va amalga oshirish, huquqni muhofaza qilish va huquqbuzarlikka qarshi kurashish, ekologik tahdidlarning oldini olish, mamlakatni ichki va tashqi kuchlar tajovuzidan himoya qilish, xorijiy davlatlar va xalqlaro tashkilotlar bilan aloqa o'rnatish va amalga oshirishda hal qiluvchi rolni bajaradi.

Davlat o'zining vazifa va funksiyalarini: parlament, hukumat, vazirliklar, sud, advokatura, maxsus xizmat organlari, qurolli kuchlari, mahalliy davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, davlat tashkilotlari va muassasalari orqali amalga oshiradi.

Shu jarayonda muhim bir jihat: davlat, xususan, uning alohida organlari o'z vazifa va funksiyalarini bajarish jarayonida dindorlar va diniy tashkilotlar bilan xilma-xil munosabatlarga kirishadi.

Din keng qamrovli ijtimoiy-ma'naviy hodisa bo'lib, ilohiy kuchlarga ishonch-e'tiqod asosida shakllangan g'oya va qarashlar tizimi hisoblanadi.

Dinning vazifalari:

– Inson hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy, ma'naviy, ruhiy vazifalarni bajaradi;

– turli rasm-rusumlar, urf-odatlar, marosim va bayramlar orqali unga e'tiqod qiluvchilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi,

– dindorlarning xulq-atvorini belgilab beradi va nazorat qiladi, ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, dindorlarni turli jinoiy xatti-harakatlardan tiyilishga undaydi, axloqsizlikni qoralaydi, ularni ezgulikka, yaxshilikka, tinch-totuv umrguzaronlik qilishga chorlaydi.

Dunyoviy davlat va din o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asoslari xalqaro va mintaqaviy huquqiy hujjatlar, alohida davlatlarning konstitutsiyalari va maxsus qonunlari hamda qonunosti hujjatlari bilan belgilab berilgan. Shu o'rinda, xalqaro huquqiy hujjatlarda kishilarning diniy e'tiqodidan qat'i nazar, teng huquqliligi, vijdon va diniy e'tiqod erkinligi, dindorlar o'z jamoalari va tashkilotlarini tuzish huquqiga ega ekanligi, din, diniy tashkilotlar bilan davlat o'rtasidagi munosabatlar, diniy sohadagi masalalar bo'yicha mazkur hujjatlarga qo'shilgan davlatlarning majburiyatlari kabilar haqidagi tayanch va asos qoidalar o'z aksini topadi.

O'rganishlarimiz asosida aytish mumkinki, bugun dunyoviy taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatlardagi dinga bo'lgan munosabat demokratiya mezonlariga asoslanganini chuqur idrok etamiz. Bizning jamiyatimiz taraqqiyoti negizi qilib belgilangan hurfikrlilik tamoyili ham xuddi ana shu tajribalarga asoslangan.

Din va dunyoviy davlat orasidagi munosabat haqida gap ketar ekan, eng avvalo, dinning davlatdan ajratilishi tamoyili uning asosini tashkil etishini ta'kidlash zarur. Bu haqda Konstitutsiyamizning 61-moddasida shunday deyiladi: "Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi".

Shu bilan birga, diniy tashkilotlarning davlatdan ajratilgani, dinning jamiyatdan ajratilganini anglatmasligini ham ta'kidlash zarur. Bu fuqarolik jamiyatida din o'z mavqeyiga ega bo'lishini anglatadi. Bu ham Konstitutsiyamizning amaldagi ijrosidan kelib chiqadigan mantiqiy xulosalardan biridir. Aytish joizki, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, bunyodkor milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va xalqimizning haqiqiy ma'naviy surati va siyratini belgilovchi fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan mehr-oqibat, hamjihatlik, o'zaro yordam, keksalarga hurmat, sharqona odob-axloq, sharm-u hayo kabi eng oliy insoniy tuyg'ularning tub mohiyatini anglash va ko'z qorachig'idek e'zozlashda aynan diniy tashkilotlar va din arboblarining roli va o'rni beqiyosligini bugun hech kim inkor etmaydi. Aksincha, bunday bunyodkor faoliyat qizg'in qo'llab-quvvatlanmoqda. Buning sababi esa, Konstitutsiyamizda ana shunday faoliyat uchun mustahkam huquqiy zamin yaratib berilganidir.

Din va dunyoviy davlat munosabatini belgilab beruvchi boshqa bir tamoyilning mazmuni din sohasida kechayotgan o'zgarishlarni xolis va ilmiy o'rganish va shundan kelib chiqib, ijobiy jarayonlar rivojiga yanada kengroq imkoniyat yaratish, salbiy holatlarning oldini olishda namoyon bo'ladi.

Davlatning dinga bo'lgan munosabatini ifodalovchi yana bir muhim tamoyil, davlat dinni xalq ma'naviyatining uzviy qismi sifatida tan oladi. Shundan kelib chiqib, uning rivoji uchun tegishli shart-sharoit yaratishga harakat qiladi.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, dunyoviy davlat bu fuqarolarning dinga bo'lgan munosabatidan qat'i nazar huquqlari tan olinadigan va himoya qilinadigan, ularning burchlariga rioya etiladigan va bajariladigan jamiyatdir. Dunyoviy davlatda demokratik tamoyillarga amal qilish dolzarb ahmiyatga ega.

Ta'kidlash joizki, O'zbekistonda dunyoviy davlat qurish yo'li tanlanishining o'ziga xos sabablari mavjud. Buning uchun dunyoviy davlatga xos jihatlarni, uning afzalliklarini bilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoviy davlatning muhim jihatlari quyidagi yo'nalishlarda o'z ifodasini topgan:

- inson huquqlari va davlat suvereniteti g'oyalariga sodiqlik;
- demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqat;
- xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olish;
- respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlash;
- insonparvar, demokratik, huquqiy davlat barpo etish;
- o'zbek davlatchiligining tarixiy tajribasiga tayanish;
- diniy tashkilotlar va birlashmalarning davlatdan ajratilganligi hamda qonun oldida tengligi. Davlatning diniy birlashmalar faoliyatiga aralashmasligi;
- fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta'minlash;
- hozirgi va kelajak avlodlar oldida yuksak mas'uliyatni anglash;
- O'zbekistonda davlat va jamiyat qurilishining huquqiy asoslari uning Konstitutsiyasida belgilab qo'yilganligi va unga tayanib ish olib borish.

Dunyoviy jamiyat qurishni ko'zlagan davlatimizning dinga munosabatini belgilovchi konstitutsion mezonlardan quyidagi ikkita asosiy xulosa kelib chiqadi:

Birinchidan, O'zbekistonda barpo etilayotgan demokratik huquqiy va adolatli dunyoviy jamiyat qurish konsepsiyasida din – madaniy-ma'naviy omillar umumiy silsilasiga kiruvchi barcha milliy qadriyatlar qatorida teng huquqli qadriyat sifatida so'zsiz tan olinadi.

Ikkinchidan, sof diniy ehtiyojlarni qondirishdan tashqarida bo'lgan har qanday g'arazga erishish yo'lida diniy omildan foydalanishga intilish qat'iyan man etiladi.

Demak, dunyoviy tabiatga ega davlatimiz dinning barkamol insonni voyaga yetkazishdek nozik va ma'suliyatli ishdagi cheksiz imkoniyatlaridan foydalanishga intiladi. Ayni paytda diniy da'volar bilan niqoblangan, aslida xolis diniy e'tiqodga mutlaqo aloqasi yo'q, jamiyatdagi hamjihatlik, millatlararo va dinlararo totuvlik, siyosiy-ijtimoiy barqarorlikka tahdid soluvchi har qanday urunishlarga dunyoviy davlat tuzumining mutlaqo murosasiz ekanini ham aniq-tiniq ko'rsatib turadi.

Nigora YUSUPOVA,
yuridik fanlari doktori,
dotsent

Abdulla Oripov 80 yoshda

Shoirning “nim” kulgisi

Abdulla Oripov!
Bu nom ko‘hna o‘zbek millatining sha’ni, faxri, iftixori. U istiqlolga yuz tutgan serquyosh yurtning, mehnatkash va jafokash xalqimizning shukuhli shoiri. Uning ijodi, shaxsiyati, badiiy g‘oyaviy olami haqida ilmda yaxshi gaplar ham, o‘rniga tushmagan nojoiz fikrlar ham bo‘lgan. Na chora?! Yer – dumaloq. Zotan, butun boshli asr she’riyati epkinini o‘zgartirgan ijodkorga nisbatan turli qarash – gipotezalar tug‘ilishi tabiiy hodisadir. Mazkur o‘rinda bezavol ijod sohibining hajviy yo‘nalishdagi she’riyatiga xolis baho berishga harakat qilamiz.

Hajviyaning asosiy negizini hazil – kulgu uyg‘otuvchi unsur tashkil etadi. Uni alohida janr deyishga asos yo‘q. Sababi, alohida janr deyishga asos bo‘ladigan unsurlar, formal belgilarning o‘zi uchramaydi. U istalgan asar tarkibida kuzatilishi mumkin. Ammo uning syujet yo‘nalishida qandaydir paradoksal voqea bo‘lishi shart. Voqea esa turli davr, zamon va makonda turli sabab va bahonalar bilan ro‘y berishi mumkin. Ushbu sababning oqibati, xulosasi esa goh mavhum qoladi, ba’zan esa muallif tomonidan aniq bir to‘xtamga kelinadi. Mavhum qolgan fursatlarning xulosasi kitobxon hukmiga havola etiladi. Xullas, A.Oripov hajviyalarida dialektik qonuniyatlarga muvofiq tasodif zaruriyatsiz, sabab esa oqibatsiz ro‘y bermaydi.

A.Oripov hajviyalarining mavzu doirasi rang-barang, g‘oyaviy ko‘lami behad salobatli. Ularni o‘qigan har qanday muxlis – o‘zi uchun bir emas, bir necha haqiqat mag‘zini tuyishi, mumkin. Hajviyalar qahramoni o‘quvchiga “begona” emas. Ular o‘zimizning ko‘chada yoxud qo‘shni qishloqda yashaydigan, chapani odamlar. Ular goh “fan arboblari” sifatida davrning dolzarb muammolari xususida bosh qotirishsa, goho obro‘-e’tibori oshib ketayotgan rahbarning “tagiga suv quyish” rejasini tuzadi. Gohida esa o‘z kasblarini eplolmay, boshqa ish qidirishga tushsalar, ba’zan arzimagan narsalarni “yuvish” zaruratini tuyadilar. Yana bir qiziq odatlari borki, o‘zlarini yer yuzida zo‘rg‘a eplaganlari holda cheksiz koinot muammolari haqida ham bosh qotiradilar. Xullas, xalq shoirining satirik yo‘nalishdagi manzumalari mutolaasidan ularga xos bosh fazilatni ilg‘ash mumkin. A.Oripov qator hangomalarida o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan, o‘zga tillarga tarjima qilish dushvor bo‘lgan noyob tuyg‘ular: mehr, oqibat, insof, diyonat, kamtarlik, tavoze’, izzat-ikrom, mehmonnavozlik, haqiqatparastlik va to‘ysevarlik fazilatlarini ulug‘laydi va aksincha anqovlik, yalqovlik, manmanlik, sergaplik, shuhratparastlik, hasad kabi salbiy illatlarni qoralaydi, fosh etadi. Xullas, shoir hajviyalari mutolaasidan ulardagi yetakchi xususiyatlarni ilg‘ash qiyin emas. Nazarimizda, A.Oripov hajviyalarining umumiy negizida milliy ruh yotadi.

1996-yili A.Oripov asarlarining “Saylanma”si nashrdan chiqqan edi. Unda shoirning o‘n uchta hajviy she’ri alohida “Hangomalar” faslida nashr etilgan. Ularning birini boshqasidan ustun qo‘yib bo‘lmaydi, albatta. Har biri o‘ziga xos hayotiy-maishiy mohiyat kasb etadi. Har birining g‘oyaviy negiziga munosib shakl tanlangan. Qahramonlarning hajviy qiyofasi, xarakteri, yordamchi, ba’zan esa majoziy obrazlar faoliyati yordamida ochiladi. Ba’zan majoziy timsollar yetakchi obraz darajasiga ham ko‘tariladi. Hajviya doirasiga biror-bir detal o‘z-o‘zidan kiritilmaydi. Unda, hatto, bir tomchi suv ham o‘ziga yarasha g‘oyaviy yuk ko‘taradi. Deylik, “Qult-qult” degan tovush shu nomdagi hajviyaning salmog‘ini ta’minlashda juda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Ammo hangomadan murod ichkilikka berilgan irodasiz kimsalarni fosh etish emas, balki jamiyatimiz a’zolarida, xususan, balog‘at yoshidagi odamlar orasida, hatto, ilm va ijod ahli orasida insof degan noyob tuyg‘u ba’zan barham yeyayotganidan shoir aziyat chekadi va xuddi shu bedavo dardni davolash uchun hajviya tig‘ini charxlaydi.

Alqissa, bir necha “zukko olimlar” yig‘ilishib, tabiatdagi barcha ovozlarni magnit tasmasiga tushiradi va bu tovushlar nimaning sadosi ekaniga qisqacha sharh berib, ko‘kka, go‘yo samodagi odamlarga uchiradilar. Ular bu bilan o‘zlarining zo‘rligini, samoda, allaqaysi sayyorada yashayotganlarning esa ojizliklarini amalda isbotlashga jazm etadilar. Sehrli qutichа ichida maktub va tasma bilan ko‘kka parvoz qiladi:

Manzili yo‘q sayoq maktub,
Fazoni xo‘b aylandi.
Oxir borib, allaqanday
Sayyoraga boylandi.

Buni qarangki, o‘sha noma’lum sayyorada ham odamlar yashar ekan. Faqat ularning yashash tarzi biznikidan tubdan farqlanar ekan. Xullas, yillar o‘tib o‘sha o‘zga sayyora fuqarolari bizning o‘zbek olimlari yuborgan sirli qutichani topib oladilar. Ammo maktubdan, tasmadan hech vaqo anglamaydilar. Xuddi shu anglashilmovchilik tasviri fonida katta talant egasi asosiy muddaoni hajviya bag‘riga joylashtiradi. Boshqacha aytganda, mana bu to‘rtlikda asarning asosiy g’oyasi aks etgan:

O‘zimizga qiyos qilib,
Kamsitmaylik barchani.
Deylik, biz ham bilmaymiz-ku
Insof degan narsani!

Shoirning asl maqsadi shu edi. U jamiyat va millat a’zolarini insof va diyonatga chorlash zaruratini his qilib, ushbu muddao uchun “shiddatkor yo‘l – nazm”ga qo‘l uradi. Nihoyat o‘zga sayyora odamlari patefonni bir necha marta eshitgach, ularning orasidan faqat bir kishi kutilmagan bir tovushni – shishaning “qult-qult” degan ovozini ilg‘aydi. Qizig‘i shundaki, bizning “zukko olimlar” ushbu ovozni magnit lentasiga maxsus yozmaganlar, maktubda uning sharhi ham uchramas edi. Ular xayrli ishning, yaxshi niyatning yakunini “yuvgan”larida yozuv patefonini o‘chirishni unutgan edilar. Ko‘ryapsizmi, olimlarimizning yuzlab tovushlarni tasmaga yozganlari u tarafga a’yon bo‘lmaydi. Faqat tasma so‘ngidagi birgina ovoz foydali naf beradi:

So‘nggi bora aylanganda,
Patefonning burovi.
“Qult-qult” degan bir tovushni
Ilg‘ab qoldi birovi.
To‘xtang, dedi, gap bu yoqda!
Tanish sado topildi.
Endi birdan tushkunlikning
Eshiklari yopildi.

Yulduz bo‘ylab o‘sha zahot,
Tarqaldi-ku, bu xabar:
Olamshumul yangilikdan
Qolmang, do‘stlar bexabar.

Ming-ming shukr, yolg‘izmasmiz,
Go‘shadoshlar bor ekan.
Allaqaysi bir puchmoqda,
Shishadoshlar bor ekan.

Ular ham o‘z dunyosida behad baxtiyor edi. Xususan, bir joydan xabar kelsa, darrov javob yozish zaruratini his qilardi. Ular patefonga qator saslar orasidan birgina “qult-qult” tovushini tanlab, yozib pastga uloqtiradi. Bu maktub hozir yo‘lda, u biz tomon kelayotir, deb shoir hangomaga yakun yasaydi.

Ushbu hangoma shakl va mazmuni, mohiyat-e’tibori bilan xalq shoirining samoviy mehmon haqidagi asarining uzviy davomi sifatida yaxshi taassurot paydo qiladi. Sababi, shoir samoviy mehmonda ham olimlar faoliyatini qadrlagan holda, ularda bir narsa – mehr yetishmasligini mahorat bilan asar zuvalasiga qistiradi. Xuddi shu noyob tuyg‘uni farrosh kampir tabiatida namoyon etadi. Bu hangomadan ham maqsad samodan allaqanday bir maxluqning bemavrid yerga tushishi yoxud ushbu tasodif haqidagi olimlar tortishuvi, harakati emas. Bular voqea yo‘sinini ta’minlovchi syujet bo‘laklari, xolos. U yerda shoir mehrni, odamlar orasida tobora siyraklashayotgan mehr-oqibat tuyg‘usini nihoyatda mohirlik bilan kulgu o‘zaniga tortgan:

Olimlarning xizmatlari
Yo‘q, bekorga ketmabdi.
Shuncha ishni qilishibdi,
Faqat Mehr yetmabdi.

Endi ikki og‘iz mashhur “Sharq hikoyasi” xususida. Tilga olingan “hikoya”ning bosh qahramoni ota ham, bola ham emas. Shuningdek, “olomon” ham syujet yo‘nalishida asosiy chiziqning chekkasida turadi. Boshqacha aytganda, ular bosh g‘oyani yuzaga chiqarish uchun yordamchi obraz vazifasini o‘taydi. Ammo ularning asardagi o‘ziga xos vazifasini inkor qilib bo‘lmaydi. Shoir uchun aynan ana shunday tortishuv

jumbog‘i zarur. Shu jumboq fonida bosh maqsad yuzaga balqib chiqadi.

“Sharq hikoyasi”ning bosh qahramoni (bu so‘zni muallif g‘oyasini yuzaga chiqaruvchi asosiy obraz sifatida qo‘llayapmiz) – eshak. O‘z fe’li, saviyasi, sajiyasi, anqovligi, go‘lligi, yag‘irligi, bedarmonligi, qariligi bilan umumiy taraqqiyotga, tinch va osoyishta mehnat va turmushga xalaqit berayotgan “ikki oyoqli eshak”lar shoir tomonidan hajviya ko‘zgusiga olingan. U o‘z qilmishi bilan hayotda ustoz-shogird, qarindosh-urug‘, er-xotin, hatto, ota-bola o‘rtasiga ham raxna solishi mumkin va bu turmushda juda ko‘p kuzatiladi. Eng qizig‘i, shoir uni gapirtirmaydi. Faqat “anday bedarmon va yag‘ir”ligini aytib o‘tadi, xolos. Ayni shu bedarmon va yag‘ir hayvon ota-bola o‘rtasidagi million yillik qondoshlikka nuqta qo‘yadi:

Qondoshlikning million yillik,
Rishtalari uzildi.
O‘rtaga bir eshak tushib,
Oralari buzildi.

Aytilganidek, eshak umumlashma obraz. U muallifning bir emas, bir necha muddaosini yuzaga chiqargan. Shaxsiy manfaat, pul, mansab ilinjida o‘zga bir odamning boshini yanchadigan eshak fe’lli odamlar atrofimizda yo‘q deysizmi. Ular tufayli ota boladan, ona qizdan, aka ukadan judo bo‘lishi ham bor gap. Xullas, ushbu asarning g‘oyaviy salobati ancha baland. Unda otaning bolaga va aksincha, bolaning otaga hurmat-ehtiromi, olomonning ittifoq bo‘lolmasligi, o‘ziga tegishli bo‘lmagan narsalarga ha deb burun tiqishi oqibatida eshak faoliyati bilan “qondoshlikning million yillik rishtalari uzilishi”, shu tariqa mehr-oqibatning yo‘qolishi qalamga olingan. Savol tug‘ilishi mumkin: xo‘sh, eshak nega aybdor? Bu unchalik ham izoh talab qilavermaydi. Avvalo, u qari, “yag‘ir va bedarmon”. Agar shu eshak bo‘lmaganda, ota-bola ehtimol, sayohatga ham chiqmasdi, olomonga mayna ham bo‘lmasdi. Ammo eshakning yaramasligi olomon yoxud ota-bolaning ahilligini ko‘rsatmaydi. Ularda ham o‘ziga xos o‘rlik, fisq-u fasod mujassam. Shu boisdan ham ushbu asarni bir mavzu bilan chegaralay olmaymiz. U mavzu doirasining kengligi, o‘ziga xos milliy nafosati bilan o‘qishli, ta’sirli va jozibali.

Eshakning so‘z san’atidagi vazifasi uzoq tarixga ega. U odatda otga qarama-qarshi qo‘yiladi. Ammo bu e’tirof uning o‘z holicha ham ijodkorning g‘oyaviy niyatini yuzaga chiqara olishini inkor qilmaydi. U folklorda ko‘proq eziluvchi, mehnatkash, qora xalq obrazining umumlashma timsolini ifodalaydi. Muayyan ijodkor qalamida esa eshak tabiati va qiyofasi anqov shaxs sintezi sifatida konkretlashadi.

Abdulla Oripovning “Hangoma”sida to‘yga chiqqan ikki cholni yo‘lda eshak boshqaradi. Bu bilan eshakni boshqaruvchi odam ham fe’li-xo‘yi jihatidan ma’lum ma’noda unga yaqin kimsa sifatida hajviya doirasida harakat qiladi. Bu hol o‘quvchi xayolida “mol egasiga o‘xshamasa, harom o‘ladi” degan naqlni jonlantiradi. Ammo nima qilgandayam, ikki qadrdon suhbatdoshning to‘yga borolmasligiga, adashib sarson bo‘lishiga o‘sha sho‘rlik eshak aybdor bo‘lib chiqadi. Chunki vaqt yarim kechadan oshganda, ortga qaytgan yo‘lovchilarni endi eshak emas, ot boshqaradi. Otning aqlliligi tufayli sarson kimsalar o‘z uylariga qaytgan bo‘ladilar. Bu tasodifdan, hatto, eshak yo‘ldan urgan qahramonlar ham hayron qoladi:

Alqissa, shu – ot yo‘lni
Uy tomon burgan ekan.
Chol-chi, o‘z kampiridan
Joy so‘rab turgan ekan.

Abdulla Oripov qalamida eshak anday bedarmon va yag‘irlikdan tashqari anqovlik va go‘llik xislatlariga ham ega. Shoir hangomalarida ming yillik she’riyatimizda an’anaviy majoziy obraz sifatida ishlatilib kelingan ot – aqlli, eshak – go‘l, maymun – mahmadona, tulki – ayyor, sher – yurt egasi sifatida o‘ziga xos ma’no ifodalaydi.

“Maymuniyat” asarida maymunning ozgina imkoniyatdan foydalanib, kekkayib ketishi, boshqa hayvonlarni, hatto odamlarni mensimay qo‘yishi tanqid ostiga olinadi va shu orqali kamtarlik ulug‘lanadi. “Adi-badi haqida rivoyat” degan hangomada esa o‘zbek xonadonlarida uchrab turadigan oilaviy mojarolar qalamga olingan. Unda shoir ko‘proq ayollarimizning sergapligini fosh etsa-da, asosan, tanqid tig‘ini erga, erkakka qaratadi. Shoir fikricha, turmushdagi oilaviy mojarolarda sergap xotin unchalik aybdor emas, uning sergapligi ojizlik alomati. Shu bois asarda tortishuvchi ayol emas, balki u bilan birma-bir aytishishdan or qilmaydigan erkak befarosatdir, degan g‘oya hukmron. Shuning uchun ham shoir she’riy rivoyatni kutilmagan fojia bilan yakunlaydi:

Xotin oxir charchadi,
Hayotdan to‘ydi, hatto.
Bola-chaqa, mol-mulk,
Bisotdan to‘ydi, hatto.
O‘zimni osaman deb
E’lon qildi so‘zini.
Bunaqa osmaslar deb
Eri osdi o‘zini.

Xullas, hajviyada maydagaplikka o‘ch erkak hayoti o‘lim bilan yakunlanadi. Shoir xotin bilan, umuman, o‘zi bilan teng bo‘lmagan toifa bilan tortishib yuruvchi xuddi shunday kishilarning jamiyatimizdan tamomila yo‘q bo‘lib ketishini istaydi. Shu jihatdan mazkur hajviyada yumor emas, satira hissi ustuvor. Shunday qilib, shoir hajviyalarida hayot haqiqatlari goh satirik, goh yumor libosiga o‘raladi. Kulgi o‘zanida turmushning achchiq, achinarli manzaralari mohirona inkishof etiladi. Afsuski, bu inkishof faqat zukko o‘quvchigagina yuz ko‘rsatadi.

Shoir hangomalarini achchiq qalampirga qiyoslash mumkin. Qalampir inson badanidagi tumovni bartaraf etgani kabi bu hajviy asarlar ham millat a’zolari tabiatidagi sanoqsiz salbiy illat hujayralarini beminnat davolaydi.

Abdurahmon PIRIMQULOV,
Islom Karimov nomidagi TDTU
Olmaliq filiali ilmiy kengash kotibi,
filologiya fanlari nomzodi

O‘zbekiston Milliy universitetining o‘zbek filologiyasi fakultetidagi tahsil yillarimda fakultetimiz talabalari, professor o‘qituvchilari muassisligida hafta, o‘n kunda bir chiqadigan “Furqon” nomli devoriy gazetamiz bo‘lardi. Undan ustozlarimiz Ozod Sharafiddinov, Norboy Xudoyberganov, Begali Qosimov, Umarali Normatov, Najmiddin Komilov, Yormat Tojiyev, Omonulla Madayevlarning sara maqolalari qatori biz talabalarning ham ustozlarimiz tasdig‘idan o‘tgan ilmiy ishlarimiz, hikoya va she’rlarimiz joy olardi.

Uch kunning sabog‘i

“Furqon”ning har bir sonida mumtoz va zamonaviy adabiyotga doir dolzarb, tahliliy maqolalar e’lon qilinar, bir mavzuga turlicha yondashgan mualliflar ijodiy bahslarining cheki bo‘lmasdi. Xullas, bu bir necha qulochlik gazetamiz fakultetimizning ma’lum ma’nodagi ilmiy-adabiy minbari, jonli oynasi edi.

Qimmatli o‘quvchim, yozuvchi Shukur Xolmirzayevning “Qora kamar” nomli tarixiy dramasini o‘qigansiz. Anglaganingizdek, asarda yovqur bobolarimizning Surxon vohasidagi milliy ozodlik kurashi aks ettirilgan. Pyesa hali qog‘ozga tushirilmay turib “Yosh gvardiya” nomli teatrda yozuvchi va taniqli rejissyor Bahodir Yo‘ldoshev bilan hamkorlikda sahnalashtirilgan. Qahramonlarning monologlari, yurish-turishlari sahna holatida sayqallangan.

Adib “Yoshlik” jurnalida e’lon qilingan dramani keyinchalik qayta ishlab, “Ko‘chki” nomli kitobiga ham kiritdi. Bu asarning ikki nusxasi, undagi tafovutlarni qiyoslash asnosida men Do‘rmondagi “Yozuvchilar uyi”da, Shukur Xolmirzayev huzurida bo‘ldim. Ijodiy muloqotlarimizning samarasi o‘laroq, “Furqon”da “Ikki nusxa tahlili”, “Qora bosmachilik, Qizil bo‘htonchilik” nomli maqolalarim chop etildi.

Adabiy qarashlarim jamlangan maqolalarni “Turkiston” gazetasi tahririyatiga, bo‘lim mudiri bo‘lib ishlayotgan Amirqul Karimovga topshirdim. Qarangki, u kishiga ham yozganlarim ma’qul bo‘libdi. Biroq ayni o‘sha yillardagi ma’naviy-siyosiy muhit isyonkor ruhiyatli maqolalarga tushov solgan, senzura hali-hamon baravj “yashnardi”...

Amirqul Karimov tabiatan muloyim odam. Ranjiganimni sezdi.

– ka, – dedi biroz xirildoq ovozda, – o‘qidim. Tarixiy jarayonlarni nihoyatda asosli yoritgansiz. Fikrlaringiz chaqnab turibdi. Biroq yozganlaringizni gazetamizda chop etolmaymiz...

Anchayin noqulay vaziyat edi. Kutilmaganda Amirqul aka qo‘limga bir juft taklifnoma tutqazdi.

– Sharof Boshbekovning “Temir xotin” asari “Ilhom” tajriba teatr studiyasida sahnalashtirilibdi. Ertadan keyin premyera. Men viloyatga komandirovkaga ketayotgan edim. Xo‘p deng! Premyerada “Turkiston” gazetasining vakili sifatida qatnashing. Taassurotlaringizni qog‘ozga tushiring! Maqolangizni albatta chiqaramiz!..

Saboqdoshlarimni teatrga birga borishga ko‘ndirolmadim. Hammasi bir gapni aytadi. “Ruscha-ku?! “Krasnaya disketa?!” ...Sharof Boshbekovning asari bo‘lmasa kerak...“Temir xotin” emas, “Krasnaya disketa”... “Qizil disketa” degani, o‘qimaysanmi,yaxshilab?!”.

Premyeraga yolg‘iz bordim. Shu o‘rinda ta’kidlashim lozimki, hayot menga yurtimizning fozil odamlari bilan uchrashish baxtini tasodiflar tufayli baxsh etganga o‘xshaydi. Duch kelganim – “Ilhom” tajriba teatr studiyasining asoschisi va badiiy rahbari Mark Yakovlevich Vayl ham ana shunday buyuk siymolardan biri edi.

Mark Vayl Toshkent shahrida harbiy zobit va teatr aktrisasi oilasida tavallud topgan. Uning mamlakatimiz teatr san’ati dong‘i jahonga yoyilishida beqiyos xizmatlari mavjud. “Ilhom” tajriba teatr studiyasi ham sobiq Ittifoqda yagona va eng birinchilardan deb e’tirof etilgan. Mark Vayl jahonning nomdor teatr arboblaridan sanalib, u Moskva, AQSh, Bolgariya, Yugoslaviya davlatlarida spektakllar qo‘yganligi bilan mashhurdir. Shuning bilan birga uning rejissyorligidagi aksariyat spektakl, hujjatli filmlar turli xalqaro festivallarning sovrinlariga ega chiqqan. U bejiz Sharof Boshbekovning “Temir xotin” asarini “Ilhom” tajriba teatrida “Krasnaya disketa ili Chudo jenshina” deb qayta nomlab, sahnaga olib chiqmagan. Mark Vaylning muddaosi paxta yakkahokimligi tufayli o‘zbek xalqining boshiga tushgan musibatlari, dardi va iztiroblarini jahon hamjamiyatiga ko‘rsatish bo‘lgan.

Qadrli o‘quvchim, yuqoridagi fikrlardan Siz mashhur jiddiy komediyaning ruscha talqini qanday nomlanganini bilib oldingiz. Asar matbuotda e’lon qilingan dastlabki kezlarda yurtimizning nomdor teatrlari bu asarni sahnalashtirishdan ochiqchasiga cho‘chishgan. Olimjon Salimov rejissyorligidagi Farg‘ona viloyati teatri esa ikkilanmay “Temir xotin”ni tomoshabinlar hukmiga havola qilgan. Keyinchalik bu asarning qo‘lma-qo‘l bo‘lib ketishi, spektaklning turli xalqaro festivallarning mukofotlariga loyiq topilishini hech bir teatr jamoasi tasavvur qilmagan bo‘lishi mumkin...

Intiq kelganimiz, “Ilhom” tajriba teatr studiyasidagi premyeraga qaytaylik. Namoyish boshlanguncha Mark Vayl asar muallifi Sharof Boshbekov va men bilan bir muddat hamsuhbat bo‘ldi. Ochig‘ini aytish kerak, har ikki ijodkor ham nomdor gazetalardan muxbirlar, turli darajadagi arboblarining tashrifidan umidvor edilar...

Sharof Boshbekov bilan suhbatimiz bir soatcha davom etdi. Bu vaqt oralig‘ida dramaturg o‘zining oddiy o‘zbek xonadonida tug‘ilgani, badiiy adabiyotga teatr orqali kirib kelganini ta’kidladi. Teatrda ko‘rimliroq rol bergunlariga qadar ommaviy sahnalar aktyori, sahna bezakchisi sifatidagi faoliyati haqida to‘xtaldi. Ma’lum muddat suflyorlik qilganini yashirmadi. Adabiyotning vazifasi haqida to‘xtalar ekan, dramaturglarni badiiy asar yaratishga undadi. Durdona asarlar o‘quvchiga maslahat bermaydi. To‘g‘ri yo‘lni topish mas’uliyati o‘quvchining ixtiyorida qolsa, adabiyotning ta’sir kuchi ko‘rinadi, deya hisoblashini bildirdi.

“Temir xotin” jiddiy komediyasida ham ayni shu jihat ustunlik qiladi. Asar voqealari atigi uch kun davom etadi. Shu uch kunlik vaqt ichida bosh qahramon Qo‘chqor o‘zi va oilasining qadrini tushuna boshlaydi. Odam bolasi ekanligini bot-bot ta’kidlaydi. Olimtoy yetti yillik umrini sarflab, nomsiz robot yaratdi. Biroq u yasagan matoh o‘zbek ayolining kundalik, yumushlariga dosh berolmay o‘z ixtirochisining ko‘z o‘ngida yonib ketdi. Qo‘chqor har qancha aroqxo‘r bo‘lmasin, Qumri o‘z turmush o‘rtog‘i, bolalarisiz yashay olmasligini tushunib yetadi. Uch kunning sabog‘i har kimga nasibasiga bitilganicha berildi...

Qimmatli o‘quvchim, endi Sizni o‘ttiz yillar burungi “Krasnaya disketa ili Chudo jenshina”, “Temir xotin” jiddiy komediyasining ilk namoyishi qanday o‘tgani qiziqtirib qoldimi?! Sabringizga tasanno! Premyera kutilmaganda nihoyatda ta’sirli o‘tdi...

O‘sha kezlari “Ilhom” tajriba teatr studiyasi moslashmagan bino-da, O‘zbekiston Yoshlar uyi biqinida joylashgan mehmonxonaning pastak podvalida qo‘nim topgan edi. Tomoshabinlarning qattiq o‘rindiqlari sahnani gir aylanasiga o‘rab olgan. Istamasangiz-da, voqealarga aralashib ketgudeksiz. Aktyorlarning nafaslari yelkangiz osha sezilaveradi. Shunga qaramay, teatr jamoasi rus, o‘zbek tillarini qorishtirib, jiddiy komediya orqali xalqimizning asriy dardlarini baralla aytishga muvaffaq bo‘lishdi. Gulduros qarsaklarga adoq bo‘lmadi...

Premyeradan so‘ng taassurotlarim asosida “Isyon” nomli maqolam bitildi. “Furqon”da e’lon qilingan mazkur ishim baribir “Turkiston” gazetasida chop etilmadi. Va’dага vafo qilgisi keldimi, gazetada Amirqul Karimov qalamiga mansub, biroq mening ism-familiyam qo‘yilgan kichik xabarcha berildi, xolos... Buning sababi esa Sizga atalmish keyingi tortig‘imning mavzusi bo‘laqolsin.

Musurmon SODIQOV,
Kitob tumanidagi
59-maktab o‘qituvchisi

Mushtariylarimiz orasida teran fikr va mushohadali insonlar juda ko'p. Ular gazetamizga ta'lim sifatini yaxshilash yo'lida olib borilayotgan islohotlar, o'z faoliyatida uchrayotgan muammo yoki ro'y berayotgan yangiliklarga munosabati, ta'lim-tarbiyaga oid taklif va mulohazalarini yo'llaydi.

YOSHLAR O'ZBEKISTONNING BEBAHO XAZINASI

Zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oya, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Mamlakatimiz kelajagini belgilashda shijoatli, maqsadni aniq qo'yib, shu asosda harakat qilayotgan yoshlarning o'rni katta. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Yoshlar – O'zbekistonning eng katta boyligi, bebaho xazinasi".

Pop tumanidagi 16-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktab-internatimizda "Obod qishloq" davlat dasturi doirasida qurilish-ta'mirlash ishlari olib borilmoqda. O'quv binosining tom qismi yangilandi, o'g'il va qiz bolalar yotoqxonasi kapital ta'mirlandi. Shuningdek, yotoqxona zarur bo'lgan barcha jihozlar bilan ta'minlandi. Foydalanish uchun topshirilgan kompyuterlar jamlanmasi esa maktab-internat o'quvchilarining IT sohasidagi bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Hamidjon QOSIMOV,
Pop tumanidagi
16-IDUMI direktorining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari

TA'LIMDA ZAMONAVIY YONDASHUV SAMARASI

Maktab-internatimizda matematika-fizika fanlari chuqurlashtirib o'qitiladi. Ta'lim muassasamizda 370 nafar o'quvchiga 40 nafar o'qituvchi-pedagoglar zamonaviy, ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida bilim berib kelmoqda. Qolaversa, pedagoglarimizdan 1 nafari fizika-matematika fanlari nomzodi, 8 nafari "Xalq ta'limi a'lochisi" ko'krak nishoni sohibi.

Ta'lim samaradorligini oshirish va o'quvchilarning sifatli bilim olishini ta'minlash uchun o'z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari eng so'nggi texnologiyalar va interaktiv usullarni yaxshi o'zlashtirgan, ulardan o'quv va tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalana oladigan matematika fani o'qituvchilari Tohirjon Qambaraliyev, Ziyodjon Mahkamboyev, Rohilaxon Omonova, Ahmadjon O'sarov, Ra'noxon Ortiqova kabi pedagoglarimizning tajribalaridan keng foydalanilmoqda. Shuningdek, geografiya fani o'qituvchisi Ra'noxon Isoqova, ingliz tili fani o'qituvchisi Otabek Ergashev, Munojotxon Sobirova ham mavzularni o'ziga xos yangicha usullarda yetkazib beradi. Buning natijasida maktab-internatimiz o'quvchilari turli fan olimpiadalari, bellashuv, ko'rik-tanlovlarda namunali ishtirok etib kelmoqda.

Bugungi kunda maktab-internatimizda 2021-yilgi Davlat investitsiya dasturiga asosan Uychi tumani "Usta No'mon" qurilish firmasi tomonidan 6 mlrd 257 mln 831 so'm shartnomaviy qiymat asosida kapital ta'mirlash va yangi 300 o'rinli o'quv binosi qurilishi ishlari jadal olib borilmoqda.

Xurshida JO'RAYEVA,
Uchqo'rg'on tumanidagi
6-IDUM direktori

INNOVATSION DARSLIKDAN MINNATDORMIZ!

Bugun ta'lim yangi bosqichda. Axborot olish osonlashgani sari o'quvchilarning fikrlash darajasi kengayib bormoqda. Shu jarayonda innovatsion texnologiyalardan unumli foydalanmaslik mumkin emas. Innovatsion jarayonlar bolalar bog'chalari, maktab, litsey va sport maktablaridagi ko'p muammolarni ijobiy hal etib, o'quvchi va o'qituvchilar o'rtasida axborot almashinuvining samaradorligini oshirishga ham xizmat qilmoqda.

Masalan, 8-sinf o'quvchilari uchun "Geografiya" (O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi) innovatsion darsligining avvalgilaridan o'ziga xos afzalliklari ko'p. Uning internetda rasmiy veb-sayti (www.geografiya8.uz) yaratilgan. Bosma darslikdagi 60 ta mavzuning har biriga QR-kod belgisi o'rnatilgan bo'lib, o'quvchi u orqali mavzularga taalluqli video, audio resurslardan, shuningdek, elektron kartalar va turli didaktik o'yinlardan foydalanish imkoniyatiga ega. Bundan tashqari, umumta'lim maktablarining yuqori sinflari uchun darsliklar har 5 yilda chop etilayotganligi sabab ulardagi ma'lumotlarni tezkor yangilash imkoni mavjud emas. Innovatsion darslikni esa veb-sayt orqali muntazam yangilab, to'ldirib borish va cheksiz kengaytirish imkoniyati bor.

Y.ISOQOVA,
Chortoq tumanidagi
11-maktab direktori

JIM YASHASHIM MUMKIN EMAS

So'nggi yillarda o'z hayotim hamda o'qituvchilik faoliyatimda ko'zni quvontiradigan ishlar ko'p bo'ldi. Yurtboshimizning: "Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi" degan shiori maktabimiz peshtoqida turar ekan, demak, mening "jim" yashashim mumkin emas. Har kuni shu so'zlar ko'zlarimiz, yuragimizga singib, maktab muqaddas dargoh ekanligi, unda O'zbekistonning kelajagi ta'lim-tarbiya topayotganini ko'rib, maqsadim yo'lida yonib yashamasam bo'lmasligini his qilaman.

Avvallari, ko'rib dil xira tortadigan maktabimiz binosi hozir zamon talablariga mos holatda ta'mirlandi, hovlisi yanada go'zallashdi. Kirish yo'laklarimizda turfa xil gullar, ulug' ajdodlarimizning maktab, bilim, insoniylik haqidagi hikmatli so'zlari yozilgan peshtaxtalar, davlatimiz bayrog'ini aks ettiruvchi lentalar, tungi chiroqlar – barchasi maktab chiroyiga chiroy qo'shgan. Eng quvonarlisi, necha yillardan buyon o'quvchilar orzusi, sport zali qurib foydalanishga topshirildi. Biz esa mana shunday e'tibor, e'tirofga loyiq bo'lish yo'lida tinimsiz harakat qilaveramiz.

Mustaqilligimizning 30 yillik to'yiga eng munosib sovg'a 2020-2021-o'quv yilida maktabimizning 23 nafar bitiruvchilari oliy o'quv yurtlari talabasiga aylangani bo'ldi. Ayniqsa, o'quvchimiz Adhamjon Absalomov Paxtachi tumanidan birinchi bo'lib O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetiga o'qishga kirdi. Bu kabi quvonchli voqealarning barchasi fidokor o'qituvchilar mehnatining samarasi, yaratilgan sharoitlarning natijasi deb bilamiz.

Zamira MAMANIYOZOVA,
Paxtachi tumanidagi
36-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

OLIS MAKTAB IJODKORLARI

Maktabimiz tumanning chekka qishlog'ida joylashgani bois o'quvchilarning iqtidorini yuzaga chiqarish uchun doim ham imkon topilavermagan. Hozir iqtidorli o'g'il-qizlar turli tadbir va tanlovlarda ishtirok etishi uchun ijodiy ko'mak berilmoqda. Jumladan, ikki nafar o'quvchimiz "Yosh kitobxon" tanlovining bu yilgi bosqichida qatnashish uchun tayyorgarlik ko'rmoqda.

O'quvchilarni kitob o'qishga qiziqtirish, mutolaaga o'rgatish uchun jamoamiz bilan turli motivatsion usullardan foydalanyapmiz. Kitobxon bolalar tanlovlarini uyushtirib, ularni rag'batlantirish maqsadida g'oliblar taqdirlanmoqda. Har hafta trening mashg'ulotlari o'tkazilib, unda o'quvchilar istagan asarning voqealar rivoji bo'yicha davra suhbatlari uyushtiriladi. Masalan, o'tgan mashg'ulotimizda "Eynshteyn jumbog'i", "Daftar hoshiyasidagi bitiklar", " Ikki eshik orasi" asarlari muhokama qilindi.

Yaqinda vodiydagi ijodkor o'quvchilarning chiqishlari to'plangan "Mitti yulduzchalar" kitobi nashr etildi. Unda maktabimizning 8–10-sinf o'quvchilari Jannatxon, Azizbek va Gavharoylarning she'rlari chop etildi. Endilikda "48-maktab ijodkorlari" deb nomlangan she'riy to'plam ustida ishlayapmiz. Sa'y-harakatlarimiz natijasida bolalarning ishtiyoqi telefondan kitobga, internet voqealaridan asar sujetlariga ko'chayotgani sezilmoqda.

Otabek QOBILOV,
Chust tumanidagi
48-maktabning ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchisi

Ta'kid

QALBLARNI TITRATGAN QO'SHIQ

Yaxshi qol, ey, dilbarim, dilda kadar, ketmoqdaman,
Ishq aro endi holim zer-u zabar, ketmoqdaman.

Na ishonch-u na quvonch-u na
ko'ngildan ochma gap,
Barchasidan ushbu kun yo'qdir
samar, ketmoqdaman...

Bu qo'shiq boshlanishi bilan ko'z oldimizda umr yo'ldoshi tanlashda adashgan, xo'rlangan Muqaddam, manmanlik va kibr butun vujudini egallagan Alimardon To'rayev, "otajon" deb begona inson tomon chopib borayotgan Shavkatjon-u, hayotdan umidi qolmagan hofizning ayanchli o'limi gavdalanadi. Ha, siz adashmadingiz, bu o'sha "Bahor qaytmaydi" kinofilmidan lavhalar...

She'r buyuk shoir Abdulla Oripov qalamiga mansub bo'lib, iste'dodli yozuvchi O'tkir Hoshimovning shoirga do'stona iltimosi ila yaratilgan.

Men quyosh yuzlimga deb,
tun-kechalar berdim yurak,
Oqibat otganda tong qondir jigar, ketmoqdaman.

Necha kunlar o'tdi, lekin holimni bir so'rmading,
Oxirida hol so'rab, kelsang magar, ketmoqdaman...

1970-yili "Sharq yulduzi" jurnalning yangi sonini ko'zdan kechirayotgan sohirnafas hofiz, bastakor Hojiakbar Hamidov kutilmaganda "Yaxshi qol..." deb boshlanuvchi she'rni ko'rib qoladi. Shartta torini qo'liga olib, qisqa vaqtda biz sevgan asarni bastalaydi. Qissa kinofilm sifatida ekran yuzini ko'rgach, bu qo'shiq millionlab insonlar orasida tezda mashhur bo'lib ketdi, kinofilm bilan mukammal uyg'unlik kasb etib, xalq mulkiga aylandi.

Bilmadim, hech bormikin asli dardimga shifo,
Xasta bu Abdulladan olgin xabar, ketmoqdaman.

Shu tariqa bir go'zal asar yaraldi, tinglagan qalblarni qayta-qayta titratdi. Barchani birdek kuylashga majbur etdi. Barhayot she'r muallifi ijod namunasidan o'ziga shunday haykal qo'ydiki, hech qanday bo'ron, ofat unga ziyon yetkazolmaydi. Zero, bu haykal tinglovchi, kitobxon va tomoshabinlar qalbidan joy olib ulgurgan!

Eldor BOBOYOROV,
Bulung'ur tumanidagi
57-maktabning musiqa fani o'qituvchisi

Sahifani Shohsanam MAHMUDOVA tayyorladi.

Oramizdagi odamlar

Maktabdan uzoqlashib bo'lmaydi

deydi 80 yoshida ham saboq berishni to'xtatmagan muallim To'ra Jo'rayev

Pastdarg'om tumanidagi 13-umumta'lim maktabi hamda 1-IDUMda ta'lim beruvchi oliy toifali kimyo fani o'qituvchisi To'ra Jo'rayev 80 yoshini qarshilamoqda. Ustoz umrini ilm-ma'rifatga bag'ishlab, el orasida qadr topdi.

– Umr bo'yi kelajakka talpinib, ertangi kunning umidi bilan yashasak-da, baribir bolalik damlarimizni sog'inaveramiz, – deydi To'ra muallim. – Bu sog'inch jism-u jonimizga shiringina azob bersa ham xush yoqadi. Hayotda imkonsiz narsalar ko'p. Bolalikka qaytishning-da iloji yo'q. Bolalikni faqat sog'inish mumkin. Mo'jiza esa ertaklarda yuz beradi. Bu – xayolot olami! Men ham xayolimda tez-tez bolalikka qaytib turaman. Shu bois ham maktabdan uzoqlasholmayman, nazarimda. Bu holat asablarimni tinchlantiradi. G'ayratimga g'ayrat, kuchimga kuch qo'sha boshlashini doimo sezib turaman.

To'ra Jo'rayev 1941-yilning 20-oktabrida ziyolilar oilasida tavallud topdi. Ikkinchi jahon urushi vaqti tug'ilgan norasida go'dak yolg'iz onasining bag'rida katta bo'ldi. Otasidan bir yoshida sag'ir qoldi. Urush ortidan kolxoz dalalarida mehnat qilib, mehnat haqi hisobiga berilgan g'alla bilan qiynalib kun kechirishdi. O'smirlik yoshidayoq og'ir mehnat qildi, ammo o'qib-o'rganishni kanda qilmadi. 1958-yili maktabni tamomlagach, O'zbekiston qishloq xo'jaligi institutining agronomiya fakultetiga o'qishga kirdi. 1965-yili mazkur ilm dargohini agronom ixtisosligi bo'yicha tamomladi. Davlat imtihon komissiyasining qarori bilan unga "olim agronom" kvalifikatsiyasi berildi. Dastlab Ishtixon tumanidagi "O'zbekiston" nomli kolxozga bosh agronom vazifasiga ishga yuborildi. Biroq uning bolalikdan kimyo faniga qiziqishi baribir ustun keldi. Shu sabab Ishtixon tumanidagi 3-maktabda kimyo fanidan bolalarga dars bera boshladi. Muallim bu orada SamDUning kimyo va biologiya fakultetini muvaffaqiyatli tugatib, ikkinchi diplomni olishga erishdi.

Izlanuvchan muallimning o'quvchilari har yili tumanda o'tkaziladigan fan olimpiadalarida g'olib bo'lishardi. U bundan g'ururlanib ketmadi. Aksincha, shogirdlarining fikrlash qobiliyatini o'stirish maqsadida repetitorlik guruhlarini tashkil etdi. O'z bilim va mahoratini davlat ta'lim standartlari va yangi texnologiya talablari darajasida ko'tarib borishga intildi.

O'quvchilari kimyo fanidan chuqur bilimga ega bo'lgani uchun dastlabki urinishdayoq OTM talabasi bo'lishga muvaffaq bo'lishyapti. Mohir pedagog o'zining ma'ruzalari bilan viloyat, respublika miqyosidagi anjumanlarda ishtirok etib kelmoqda. Ustoz muallimning ilg'or tajribasi o'tgan yillar davomida besh marta respublika bo'yicha ommalashtirildi.

Ustozning ta'limini olgan o'quvchilaridan Ilhom Beknazarov (2003–2005-o'quv yillari Turkiya davlatida), Doniyor Nasriddinov (2006–2007), Nizom Najmiddinov (2008–2009), Javohir Eshonqulov (2014-2015) kimyo fanidan o'tkazilgan xalqaro olimpiadalarda faxrli o'rinlarni egallagan. Hozir OTMlarda kimyo fanidan talabalarga saboq berayotgan fan nomzodlari-yu doktorlari orasida To'ra akaning o'quvchilari ko'p. Oynisa Musurmonova, Valijon Daminov, Tolib Astonov, Sirojiddin Ahmedov, Sodiq Eshonqulov va Baxtiyor Ahmedov, biologiya fanlari doktori Jasur Qudratov, tibbiyot fanlari doktori Feruz Daminov shular jumlasidandir.

To'ra Jo'rayev bir qancha maqola va ma'ruzalar muallifi. "Kimyo faniga oid masalalar yechish" to'plami yoshlarning fikrlash qobiliyatini o'stirishda juda kerakli qo'llanma. "Kimyo darslarida ekologik ta'lim va tarbiya berishni takomillashtirish" mavzusidagi respublika seminaridagi ma'ruzasi kitobcha shaklida chop etilgan. Kimyo fanidan innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etishga bag'ishlangan "Kimyo fanining fanlararo bog'liqligi" mavzusidagi ma'ruzasi ham pedagoglarga qo'l kelmoqda.

Mohir pedagog ko'p yillik samarali faoliyati uchun "Xalq ta'limi a'lochisi", "Metodist o'qituvchi" nishonlari bilan rag'batlantirilgan. 1982-yildan boshlab respublika Mendeleyev jamiyatining a'zosi hisoblanadi. Viloyat bo'yicha kimyo fan olimpiadalarida hakamlar hay'ati a'zoligiga saylangan.

Xalq dardi bilan yashagan, jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qilganlar doimo mana shunday e'zoz topadi. Darvoqe, muallimlik kasbini bir umr ardoqlagan insonlar esa bunday e'zozga ikki karra, o'n karra loyiqdir balkim.

Ma'murjon QIYOMOV

Yaxshilar yodi

Fidoyi olimning ma'naviy merosi

Hayoti va faoliyati nafaqat qashqadaryoliklarga, balki mamlakatimiz ziyolilari uchun ibrat maktabi bo'la oladigan adabiyotshunos olim, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi Poyon Ravshanov uzoq yillar Qarshi davlat universitetida xalqimiz farzandlariga saboq berdi. Oddiy o'qituvchilikdan kafedra mudiri, fakultet dekani va o'quv ishlari prorektoriga qadar bosqichda to'plagan ilmlarini el bilan baham ko'rdi. Saksondan ziyod tarixiy, badiiy va nazmiy asarlar yaratdi.

Olimning asarlari uch yirik yo'nalish: adabiyotshunoslik, badiiy ijod va tarixshunoslikni o'z ichiga oladi. U adabiyotshunos sifatida bolalar qissachiligi bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. "Bolalikning sehrli olami", "Adabiy sahifalar", "Adabiyot: nazariya va amaliyot" singari ilmiy risolalari ijodkor talabalar uchun ilm manbayi vazifasini o'tadi. Shuningdek, Poyon aka qo'lyozma va toshbosma manbalar ustida ishlab, "Temurnoma", "Turkiy qavmlar tarixi" kabi ilmiy-tarixiy asarlarni nashrga tayyorladi. "Vatan tarixidan: Turon VII–XIX asrlarda", "Amir Temur xonadoni", "Amir Temur vatani", "Qashqadaryo tarixi", "Qarshi tarixi", "Shahrisabz tarixi", "Jenov tarixi" singari ham hajm, ham mohiyat e'tibori bilan salmoqli ilmiy asarlar yaratdi. Tarixiy-ilmiy materiallar asosida "Zavol", "Naxshab qissasi", "Temurbek va amir Husayn qissasi", "Shukuhli umr" singari badiiy asarlar ijod qildi.

Poyon Ravshanov viloyat arxivlarida ishlab Qashqadaryodan sobiq ittifoq davrida nohaq qamoqqa olinib, qatag'on qilingan insonlarning o'tmishini o'rganib, uch jildlik "Qatag'on", "Istibdod", "Tajovuz" nomli kitoblar nashr qildirdi. Shuningdek, "Qizil saltanat iskanjasida", "Amirlashkar Alimquli tarixi" kitoblarini yozdi. Ushbu asarlaridagi tarixiy voqeliklar asosida "Qamoq saltanati" romanini, "Malika Kenagas oyim yoxud Amir Nasrulloning o'limi qissasi", "Qorovulbegi qismati", "Qo'lga tushgan qasoskorlar" qissalari dunyo yuzini ko'rdi. U chorak asrdan ortiq vaqt davomida Nasaf va Kesh (Shahrisabz) uzoq o'tmishida shakllangan adabiy hayot tarixini tadqiq etgan adabiyotshunos olimdir. Uning ayniqsa "Adabiy sahifalar" asarida Qashqadaryo timsolida xalqimizning eng qadimgi davrlaridagi hayoti va ijodiy tafakkur tarzi mukammal yoritilgan. Adabiyotshunoslikda birinchi bo'lib ushbu asarda IX–X asrlardan to XIX asr boshiga qadar vohada yashab ijod etgan Nasafiy va Keshiy nisbali yigirma bir shoir va to'qqiz xattotning jahon tamaddunida tutgan o'rni to'g'risida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Poyon Ravshanov tarixshunosligining kattagina qismi bevosita sohibqiron Amir Temur va uning avlodlari hukmronligi davrini qamrab oladi. Olimning 1988-yilda katta shov-shuv va e'tiroflarga sabab bo'lgan "Amir Temur muhri" nomli maqolasi ushbu xayrli ishlarning debochasi edi. Shundan so'ng izma-iz Salohiddin Toshkandiyning "Temurnoma"si tabdili va tadqiqi, "Amir Temur tug'ilgan joy yoxud Zanjirsaroy qissasi", "Amir Temur vatani", "Amir Temur va Amir Husayn qissasi", "Amir Temur xonadoni" asarlari yaratildi. Adibning buyuk sohibqiron Amir Temur haqida yozgan "Amir Temur sulolasi", "Temuriylar silsilasi" kabi asarlari bizni asl tarixiy haqiqatlar bilan yanada yaqindan tanishtirdi.

"Amir Temur sulolasi"ni muallif o'z o'quvchilariga tarixiy roman sifatida taqdim qiladi. Asarda Sohibqiron va uning Markaziy Osiyo, Xuroson, Eron va Hindistonda besh asrga yaqin hukm surgan sulolasi qismati tasvirlangan. 1447-yildan 1507-yilga qadar Movarounnahr va Xurosonda kechgan shiddatli voqea-hodisalar, sulolaning oltmish yillik tarixi yoritilgan "Temuriylar silsilasi" asari ham shu yo'sinda dunyo yuzini ko'rdi. Ma'lumki, bu davrda Shohrux va Ulug'bek mirzodan meros yurtni idora qilgan temuriyzodalar hayoti va faoliyati ancha chigal kechdi. Asarda toj-u taxtga intilgan, unga bir sira va davomli muyassar bo'lgan bir necha temuriyzodalar qismati tarixiy-badiiy manbalar asosida real tasvirlangan. Ular qatorida "Oqsaroy tarixi" asari ham alohida o'rin tutadi. Ayniqsa, 1380–1396-yillarda bunyod etilgan Oqsaroy qasri – Sohibqiron Amir Temur hazratlari barpo ettirgan betakror muhtasham me'moriy obidadir. Uning hayratomuz tarixi kitobda keng tasvirlangan.

Alqissa, ilmiy-ijodiy faoliyati bilan adabiyotimiz, tarixchiligimiz rivojiga katta hissa qo'shgan adib va shoir, adabiyotshunos va tarixchi Poyon Ravshanov vafotidan so'ng – 2020-yilning 12-13-noyabr kunlari Qashqadaryo viloyatiga tashrif buyurgan Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan uning shaxsiy kutubxonasida saqlanayotgan 42 ming donadan ziyod nodir ma'naviy merosi viloyat Yoshlar markaziga ko'chirildi. Ushbu maqsadda bu yerdan alohida joy ajratilib jihozlandi. Shuningdek, mazkur kutubxonada jam bo'lgan kitoblarning mazmun-mohiyatini yoshlar orasida keng targ'ib qilish viloyat rahbariyati zimmasiga yuklatildi.

Bu, shubhasiz, olimga va u qoldirgan ma'naviy merosga yuksak hurmat namunasidir.

G'ulom ABDIYEV,
O'zbekiston Yozuvchilari uyushmasi a'zosi

Keyingi sonda "Ratsional sonlar va ular ustida amallar" mavzulari bo'yicha test variantlari beriladi, bunda testlar 5-6-sinf materiallari bo'yicha tuziladi.

"Ma'rifat" repetitori

Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 3-varianti

ONA TILI

1. Quyidagi qaysi so'zdan -a qo'shimchasi bilan fe'l yasalganda tovush almashishi kuzatilmaydi?
A) yosh B) son C) ot D) qon

2. Quyida berilgan so'zlardan qaysi biri ajratib yoziladi?
A) bir//zum B) bir//oz
C) bir//pas D) bir//varakayiga

3. Shart mayli qaysi qatorda orzu-istak ma'nosini bildirgan?
A) Odam bo'laman desang, kamtarlikni odat qil.
B) Yomg'ir tezroq tinsa edi, suvoqni yakunlar edik.
C) Ko'z yoshi to'kib ariq qazisang, kulib-kulib suv ichasan.
D) Agar kishi halol mehnat qilsa, u shon-shuhrat qozonadi.

4. Qaysi javobda otning tuzilishiga ko'ra barcha turi qatnashgan?
A) uy, qo'lqop, idish-tovoq
B) daraxt, ota-ona, oltingugurt, tuz-puz
C) tosh, beshiktebratar, qo'ziqorin, choy-poy
D) yer, tuz, uchburchak, osh-posh

5. *"Yozda Buxoroga qarindoshlarimizni ko'rgani bordik, ham tarixiy obidalarni tomosha qildik".*
Ushbu gapda ham so'zi qanday vazifani bajargan?
A) yuklama B) modal so'z
C) bog'lovchi D) ko'makchi

6. Qaysi gapda kishilik olmoshiga ta'kid ma'nosi yuklangan?
A) O'zi po'latdan, dumi yog'ochdan.
B) Mening og'am ichinda, soqollari tashinda.
C) Iloji bo'lsa, unga bildirmaylik.
D) Mening o'zim ham hayronman.

7. *Yangi binolar qishloqning husniga husn qo'shmoqda.*
Ushbu gapda aniqlovchining qaysi turlari qo'llangan?
A) sifatlovchi, qaratqich aniqlovchilar
B) qaratqich, izohlovchi aniqlovchilar
C) sifatlovchi, qaratqich, izohlovchi aniqlovchilar
D) izohlovchi, sifatlovchi aniqlovchilar

8. Qaysi gapda hol uyushib kelgan?
A) U asta joyiga o'tirib, gapira boshladi.
B) Topshiriqni tez va puxta bajardik.
C) Salqin va bahavo bog'da dam oldik.
D) Yo'l keng va tekis edi.

9. *"Bordik biz kecha muzeyga".*
Ushbu gapda qaysi so'z mantiqiy urg'u olgan?
A) biz B) bordik C) muzeyga D) kecha

10. Qaysi qatorda nisbiy so'z yordamida ergashgan qo'shma gap berilgan?
A) Ukalarim bezovta bo'lmasin deb, to'ng'ich botir to'qayning bir chekkasiga qochdi.
B) Shuni doimo yodingda tutki, biz hammamiz seni yaxshi ko'ramiz.
C) Kim harakat qilsa, u baraka topadi.
D) Esli-hushli do'stlaringiz bo'lsa, biznikiga olib kelarsiz.

11. *"Birdan tush kabi uzuq-yuluq xotiralar yopiriladi // yuragim gursillagancha o'rnimdan turib ketaman".*
Ushbu bog'lovchisiz qo'shma gapda // belgisi o'rnida qaysi tinish belgisi qo'yiladi?
A) nuqtali vergul B) tire
C) ikki nuqta D) vergul

12. Quyidagi so'zlarni qaysi nutq uslubiga mansubligiga ko'ra moslashtiring.
a) quyida imzo chekuvchilar;
b) yillar armoni;
d) tajriba asosida;
e) yeb tashlamoq;
f) ijodkor yoshlar.
1) so'zlashuv; 2) ilmiy;
3) publitsistik; 4) rasmiy; 5) badiiy.
A) 1-e, 2-d, 3-f, 4-a, 5-b
B) 1-e, 2-d, 3-b, 4-a, 5-f
C) 1-e, 2-a, 3-f, 4-d, 5-b
D) 1-d, 2-e, 3-f, 4-a, 5-b

13. Qaysi qatordagi boshliq so'zining sinonimi oddiy so'zlashuvga xos bo'lib, salbiy bo'yog'i kuchli?
A) rahbar B) kallampo
C) rahnamo D) yo'lboshchi

14. Quyidagi juftliklardan qaysi biri ma'no jihatidan bir-biriga mutlaqo mos kelmaydi?
A) o'taketgan – uchiga chiqqan
B) yashirin – yeng ichida
C) har doim – ikki dunyoda (ham)
D) beqiyos (juda) – yer bilan osmoncha

15. Kishilik olmoshlaridan qaysi biri o'zini ta'kidlamaslik, kamtarlik ma'nosini ham bildirib kelishi mumkin?
A) men B) sen C) biz D) ular

G'anisher HAQNAZAROV,
Xatirchi tumanidagi
1-maktab o'qituvchisi

MATEMATIKA

16. $10 < n \leq 37$ **Tengsizlikni nechta tub son qanoatlantiradi?**
A) 8 B) 9 C) 18 D) 19

17. 0, 1, 3, 5, 7 raqamlaridan nechta ikki xonali son tuzish mumkin?
A) 16 B)18
C) 20 D) 22



18. Agar 1 kv metrga 250 g bo'yoq ketishi ma'lum bo'lsa, devorni bo'yash uchun necha kg bo'yoq kerak bo'ladi?
A) 3,5 B) 35 C) 0,35 D) 350

19. $\frac{12}{n+5}n$ **ning nechta qiymatida ifoda noto'g'ri kasr bo'ladi?**
A) 11 ta B) 7 ta
C) 9 ta D) cheksiz ko'p qiymatida

20. –(-88+425)-(-457) ifoda qiymatining raqamlar yig'indisini toping.
A) 5 B) 8 C) 9 D) 10

21. a, b, c – natural sonlar uchun $150=2^a3^b5^c$ **bo'lsa, tomonlari** *a, b, c* **bo'lgan to'g'ri burchakli parallelopiped sirtining yuzasini toping.**
A) 20 B) 22 C) 15 D) 14

22. Agar *a, b, c* **– raqamlar bo'lsa, ko'paytirish jadvalidan foydalanib** *a+b-c* **ni qiymatini toping.**

x	a	b	c
a		21	
b			35

A) 5 B) 4
C) 12 D) -4

23. $\frac{18}{22}+\frac{28}{33}+\frac{38}{44}=a$ **bo'lsa,** $\frac{4}{22}+\frac{5}{33}+\frac{6}{44}=$ **ni** *a* **orqali ifodalang.**
A) 2-*a* B) 3-*a* C) 6-*a* D) 8-*a*

24. Quyidagi ifodalardan qaysi biri -1 ga teng?
A) $((-1)^{21})^2$ B) $(-(-1)^{33})^6$
C) $(-(-1)^{22})^3$ D) $(-(-1)^{22})^4$

25. EKUB (1;2;3;4;5;6;7;.....99;100) =?
A) 1 B) 100 C) 2000 D) aniqlab bo'lmaydi

26. Agar n va r lar natural sonlar bo'lsa, $6^{3k+3}+5^{2n+1}$ **ifodaning oxirgi raqamini toping.**
A) 1 B) 5 C) 7 D) 6

27. Quyidagi mulohazalardan qaysi biri to'g'ri?
A) Oddiy kasrning surat va maxraji bir xil songa orttirilganda kasrning qiymati o'zgarmaydi.
B) 12 va 8 ga qoldiqsiz bo'lingan sonlar 96 ga ham qoldiqsiz bo'linadi.
C) Manfiy sonning manfiy toq darajasi manfiy son bo'ladi.
D) Tub sonlar ko'paytmasi ham tub son bo'ladi.

28. To'g'ri to'rtburchakning bo'yi 48 sm, eni esa bo'yidan 10 sm qisqa. Perimetri to'g'ri to'rtburchakning perimetriga teng bo'lgan kvadratning yuzini toping.
A) 1849 B) 4545 C) 4800 D) 2345

29. -8, -7, -5, 2, 4, 8 sonlar orasidan ixtiyoriy ikkitasi tanlab olindi va bir-biriga ko'paytirildi. Eng kichik son nechaga teng bo'lishi mumkin?
A) -63 B) -64 C) -18 D) -56

30. Pulni 12 kishi teng bo'lishib olishsa har biriga *a* **so'mdan tegadi. Shu pulni 8 kishiga bo'lishsa, kishi boshiga tushgan pul qancha bo 'ladi?**
A) $\frac{a}{5}$ B) $\frac{a}{4}$ C) $\frac{3a}{2}$ D) $\frac{a}{3}$

Keyingi sonda "Ratsional sonlar va ular ustida amallar" mavzulari bo'yicha test variantlari beriladi, bunda testlar 5-6-sinf materiallari bo'yicha tuziladi. Shu mavzularni chuqurroq o'rganishga harakat qiling!

Hamza XUDOYBERDIYEV,
G'ijduvon tumanidagi
32-maktab o'qituvchisi

O'ZBEKISTON TARIXI

31. Fransuz olimi A.Dyuperron faoliyati bilan bog'liq ma'lumot qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
A) Behistun qoyatoshidagi yozuvlarni ilk marta o'qigan
B) "Buyuk meridianal yo'l"ga "Ipak yo'li" nomini bergan

O'zbekiston oltin qazib chiqarish bo'yicha dunyoda yettinchi, MDH davlatlari orasida esa ikkinchi o'rinda turadi.

"Ma'rifat" repetitori

Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 3-varianti

C) Turkiyadagi Hisorlik tepasidan Troya shahri qoldiqlarini topgan
D) Ilk marotaba "Avesto"ning alohida qismlarini tarjima qilgan

32. Quyidagi qaysi qadimiy davlatning poytaxti Ershi shahri bo'lgan?
A) Qang'
B) Davan
C) Kushon
D) Yunon-Baqtriya

33. Quyidagi qaysi davlat o'rta asrlarda O'rta Osiyoda 120 yildan oshiqroq faoliyat yuritgan?
A) Arab xalifaligi
B) Eftallar davlati
C) Xioniylar davlati
D) Qoraxitoylar davlati

34. Qaysi Xuroson noibi davrida yer egasining e'tiqodidan qat'i nazar, ularning xiroj to'lashi shart qilib qo'yildi?
A) Nasr ibn Sayyor
B) Ashros
C) Qutayba ibn Muslim
D) Umar ibn Abdulaziz

35. Quyidagi qaysi jangda Jaloliddin Mangubardi muvaffaqiyat qozonmagan?
A) Isfahon yaqinidagi jangda
B) Tarak daryosi bo'yidagi jangda
C) Basra yaqinidagi jangda
D) Arzinjon yaqinidagi jangda

36. Amir Temur vafotidan so'ng taxtni o'zboshimchalik bilan egallab olgan temuriy shahzoda kim edi?
A) Xalil Sulton mirzo
B) Shayx Nuriddin
C) Pirmuhammad
D) Abdullatif

37. Quyidagi qaysi voqea Abulxayrxonning temuriylarga qarshi kurashga kirganligining dastlabki belgisi edi?
A) O'z davlatini Oltin O'rdadan mustaqil deb e'lon qilishi
B) Sirdaryoning o'rta oqimida joylashgan hududlarni bosib olib, o'z poytaxtini Turadan Sig'noqqa ko'chirishi
C) Taxtni egallash uchun madad so'ragan temuriyzoda Abu Saidga yordam berishga rozi bo'lishi
D) Mirzo Ulug'bekning qizi Robiya Sultonbegimni o'ziga nikohlab olishi

38. XIX asr birinchi yarmida Qo'qon xonligining qaysi shahrida 80 ta maktabxona, 10 ta madrasa va masjid faoliyat ko'rsatgan?
A) Andijon B) Qo'qon
C) Toshkent D) Marg'ilon

39. Toshkentda qaysi davrda to'rt hokimlik vujudga keldi?
A) XVIII asrning ikkinchi yarmida
B) XIX asr boshlarida
C) XVIII asr birinchi yarmida
D) XIX asr o'rtalarida

40. XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyoda eng katta davlat qaysi edi?
A) Afg'oniston B) Buxoro amirligi
C) Xiva xonligi D) Qo'qon xonligi

41. XX asr boshlarida Farg'ona vodiysida faoliyat olib borgan jadidchilik harakatining namoyandasini aniqlang.
A) Abdulqodir Shakuriy
B) Abdulla Avloniy
C) Obidjon Mahmudov
D) Sadriddin Ayniy

42. Kimning "To'y" asarida oilaviy va shaxsiy fojialar sababchisiga aylangan serchiqim ba'zi urf-odatlar va an'analar tanqid ostiga olindi?
A) Mahmudxo'ja Behbudiy
B) Nusratilla Qudratilla
C) Abdulla Avloniy
D) Abdulhamid Cho'lpon

43. Sitorayi Mohi Xosa saroyi bilan bog'liq to'g'ri ma'lumotni aniqlang.
A) Saroy besh xonadan iborat: kutish zali, qabulxona, taxtxona, ziyofatxona va mehmonxona
B) Qasr qurilishi munosabati bilan rus podshosi Nikolay II ikkita maxsus qandil va kamquvvatli nurquvvat uskunasi sovg'a qilgan
C) Buxoro shahri markazidan 3,5 km shimolda joylashgan
D) Saroyning bir qismi bo'lgan Oq zalning qurilishida yevropacha qurilish uslubi ustunlik qiladi

44. Quyidagi qaysi shaharga 1958-yilda asos solingan?
A) Urganch B) Toshkent
C) Samarqand D) Navoiy

45. Toshkent islom universitetiga nechanchi yilda asos solingan?
A) 2002-yilda B) 2004-yilda
C) 1999-yilda D) 1996-yilda

Jalol BOLTAYEV,
Urganch davlat universiteti
magistranti

ONA TILI

S	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
J	D	A	B	B	C	D	A	B	B	C	D	A	B	C	C

MATEMATIKA

16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30
A	C	A	B	D	C	A	B	C	A	A	C	A	B	C

O'ZBEKISTON TARIXI

31	32	33	34	35	36	37	38	39	40	41	42	43	44	45
D	B	C	A	D	A	B	D	C	D	C	B	D	D	C

Darsga qo'shimcha

Asl va nodir metall

Dunyo tan olgan buyuk qomusiy alloma Aristotel metallarni asllik sifati kamayib borishiga qarab quyidagi tartibda joylashtirgan: oltin, kumush, mis, qalay, qo'rg'oshin, simob, temir… Oltindan boshlab asllik va nodirlik sifati kamayib boruvchi metallar tizimiga "Aristotel qatori" deyiladi. Oltin — sariq tusli yaltiroq, yumshoq nodir metall bo'lib, u nihoyatda bog'lanuvchandir. Issiqlik va elektr tokini juda yaxshi o'tkazgani uchun kumush va mis bilan birga qotishmalar holida ishlatiladi.

Nodir va faol metall bo'lgan oltin zargarlikda, tibbiyotda, fazoviy kosmik kemalarning ilmiy-tadqiqot apparatlarida, raqamli kompyuter texnikasi va texnologiyasida, o'lchov toshlarini tayyorlashda, zamonaviy aloqa vositalarida ishlatiladi. Shuningdek, robotlar ishlab chiqarish, teleelektronika, tarixiy tangalarni zarb etish va boshqalarda qo'llanilmoqda. Oltin tabiatda tug'ma va birikmalar holida ham uchraydi.

Mis guruhida eng nodir metall — oltin tarqoq metall bo'lib, asosan tug'ma, ba'zan birikmalar holida(Oltin (II) – tellurid – kalaverit holida) uchraydi.

IX–X asrlarda Zarafshon tog'larida oltin, kumush, mis, qalay, volfram, qo'rg'oshin, temir, simob, rux, titan kabi metallarning ruda konlari mo'l bo'lgan.

XX asr o'rtalarida o'zbek geologlarining otaxoni degan ulug' nom olgan alloma, Respublikada xizmat ko'rsatgan fan va texnika arbobi, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, akademik Habib Abdullayev(1912–1962) umumiy geologiya, geokimyo, geofizikaning dolzarb masalalariga doir tinimsiz ilmiy faoliyat olib borgan. Jonkuyar ma'danshunos olim yurtimizning ko'plab hududlaridan topilgan va endi aniqlanayotgan qazilma boyliklarining konlarida tez-tez ekspeditsiyalarda bo'lar edi.

1969-yili O'zbekistonda dastlabki oltin yombisi quyilgan. Shu vaqtdan boshlab oltin qazib olish sanoati rivojlandi. O'zbekiston oltin qazib chiqarish bo'yicha dunyoda yettinchi, MDH davlatlari orasida esa ikkinchi o'rinda turadi. Mamlakatimizda oltin qazib olish sanoatining yirik markazlaridan biri Navoiy kon-metallurgiya kombinatidir.

Zargarlik va texnik buyumlar uchun sof oltin emas, balki uning misli va kumushli qotishmalari qo'llanadi. Sof oltin juda yumshoq, shu bois uning yuqoridagi qotishmalaridan foydalaniladi. Mamlakatimiz sanoatida ishlab chiqariladigan oltin buyumlarga quyiladigan proba(tamg'a) oltinning shu qotishmadagi mingdan bir og'irlik qismiga to'g'ri keladigan miqdorini ifodalaydi. Masalan, 583-proba degani qotishmadagi oltin miqdori 58,3 foizni tashkil etadi deganidir. Oltin noyob element, uning Yer qobig'idagi miqdori atigi 4,3•10-7 foizni tashkil etadi.

Hozirgi vaqtda oltinning asosiy manbayi rudalar bo'lib, uning bir tonnasida bu qimmatbaho nodir metalning sanoqli grammi mavjud bo'ladi. Bu noyob metallni ajratib olishning muhim sanoat usullaridan biri sianidlash kimyotexnologiyasidir. Bunda maydalangan rudaga natriy sianid eritmasi qo'shiladi, natijada oltin kompleks birikma sof holida eritmaga o'tadi.

Oston JABBOROV,
Ergashoy O'ROQOVA,
faxriy o'qituvchilar,
Tursunoy JABBOROVA,
Samarqand tumanidagi
2-IDUM o'qituvchisi

Tarix saboqlari

Kapral, konsul va imperator!!!

XVIII asrning o'rtasi ado bo'lib, oxiri ko'rina boshlagan palla. So'l kuchlar tomonidan "buyuk" deya ulug'langan, nafaqat Fransiyani, balki butun boshli Yevropani eski tartiblardan xalos etgan, minglarcha insonlarning orzu-maqsadlari yo'g'rilgan, turli xil siyosiy kuchlarning qarashlarini o'zida jamlagan "Buyuk fransuz burjua inqilobi" yetilib kelayotgan davr edi...

O, bu yoshgina Bonapartning qadam tashlashini ko'ring! U qahramon, u mo'jizaviy bahodir, u afsungar!

Rus sarkardasi A.V.SUVOROV

1769-yilning 15-avgustida O'rta Yer dengizining Fransiyaga qarashli qismi, Korsika orolidagi Ayachcho shahridagi kichik mulkdor oilasida kurrayi zaminning tarixdagi buyuk fotihlari qatorida qolajak shaxs Napoleon Bonapart dunyoga keladi. O'sha paytgacha Korsikani Genuya respublikasi nazorat qilar, Napoleon tug'ilishidan bir yil oldin esa respublika bu orolni Fransiya qiroli Lyudovik XV ga 40 million livrga pullagan edi. Napoleonning ajdodlari bu orolga XVI asrda ko'chib kelishgan bo'lib, ota-onasi hujjatlarda italyancha talaffuzdagi Buonaparte nomi bilan qayd etilgan. Shuning bilan bir qatorda yosh Napoleonning tug'ilganlik haqidagi guvohnomasida va u o'qigan Briyenn harbiy maktabida ham familiyasi ajdodlari singari qayd etilgan. Biroq voyaga yeta boshlagan bo'lajak qo'mondon davr ruhidan kelib chiqib, familiyadagi "u" harfini oldirib tashlagan va chin ma'nodagi "fransuz"ga aylangan. Oilada bolalar ko'p, pul esa oz edi. Harbiy maktabda o'qish jarayonida matematika, tarix va geografiyani ajoyib natijalar bilan o'zlashtirgan Napoleon 1785-yili kichik leytenant unvoni bilan harbiy faoliyatini boshladi.

Tarixdan bilamizki, buyuklarning hayotiga turli xil afsonanamo ijobiy fikrlar bilan bir qatorda salbiy ma'nodagi fikrlar ham qo'shilib borgan. Jumladan, Napoleon Bonapart shaxsiyati ham bundan mustasno emas. Shu vaqtga qadar ko'plab tarixchilar buyuk generalning asosiy kamchiligi uning past bo'yli ekanligi, deyishadi. Asos sifatida esa Bonapart xalq orasida "Korsikalik diktator, Kichik korsikalik va Mitti kapral" laqablari bilan mashhur bo'lganligini keltirishadi. Ayrimlarning aytishicha, bo'lg'usi qo'mondon hali talabaligida do'stlari "Sen kichik bo'ying bilan to otga minguningcha, biz muhorabani yakunlaymiz" deyishadi, shunda yosh Bonapart "Muhorabalar men otga mingach boshlanajak", deya javob beradi. Biroq boshqa manbaga ko'ra generalning past bo'yli ekanligi faqatgina Britaniya propagandasining mahsulidir. Qadimgi Misrda "Podshoh tirsagi" degan umumiy ma'nodagi uzunlik o'lchov birligi mavjud bo'lib, mazkur birlikning miqdori fir'avnlar tirsagi miqdorida olingan. Xuddi shuningdek, Fransiyada ham davr sharoitidan kelib chiqib, "Qirollik futi" tushunchasi mavjud bo'lgan. Uning miqdori esa o'sha vaqtda taxtdagi qirolning oyog'i uzunligicha hisoblangan. Aynan shu tizimda Napoleonning bo'yi 5 fut va 6 dyuym, Britaniya tizimida esa 5 fut 3,5 dyuymga teng bo'lgan. Boshqa bir manbaga ko'ra uning bo'yi 169 santimetr edi. O'sha vaqtdagi fransuz erkaklarining o'rtacha bo'y ko'rsatkichi esa 165 santimetrni tashkil etgan. Solishtirma ma'lumot o'rnida aytish lozimki, Uinstion Cherchill va Aleksandr Pushkinning bo'ylari generalning bo'yidan uch santimetr, Stalinning bo'yi esa to'rt santimetr past bo'lgan. Shundan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, inglizlar orasida tarqagan ushbu ma'lumot informatsion urushning bir ko'rinishi, xolos. Boisi, xalq orasida "Pakanalar vahshiydirlar" iborasi keng urchigan edi.

Napoleonning omad qadamlari asosan 1789-yilning 14-iyulidagi Bastiliya qal'asining olinishi bilan boshlandi. Qurol-yarog' omborlarini egallab olgan parijliklar Bastiliyani shturm qilishga hozirlanardi. Barcha tabaqalar qirol zulmining ramzi hisoblangan qal'aga nafrat bilan qarar edi. Ular qal'a komendanti Markiz de Lonedan taslim bo'lishni talab qilishdi. Ammo soqchilar parlamentyorlarni o'qlar bilan qarshi olishdi. G'azabga kelgan olomon ko'tarma ko'prik zanjirlarini uzib tashlab, qal'ani ishg'ol etdi. Bastiliya olingani haqidagi xabar qirol Lyudovik XVI ga yetkazilganida u "Axir, bu isyon-ku!", deydi, xabarchi esa "Yo'q, janob, bu — inqilob!", deya javob beradi. Shu tariqa hokimiyat xalq qo'liga o'tib ketadi. Bu orada mamlakat boshqaruvi uchun siyosiy sahnaga yakobinchilar, jirondistlar, radikallar va royalistlar singari o'ng-u so'l kuchlar chiqib kelishadi. 1795-yilga kelib betinim kurashlar natijasida qo'lga kiritilgan respublika tuzumi monarxiya tarafdorlari tomonidan qattiq siquvga olina boshladi. Quturgan royalistlar konventni tarqatib yuborish uchun jiddiy kirishdi. Artilleriya yordamida isyonchilarni tor-mor qilgan general Bonapart konventning xaloskoriga aylandi. Natijada siyosiy kuchlar minnatdorchilik ramzi sifatida yigirma olti yoshli Napoleonga Fransiyaning ichki harbiy kuchlari qo'mondoni va brigada generali unvonini berdi. Direktoriya Shimoliy Italiyaga yurish qilish uchun nomzod qidirdi, tabiiyki yagona munosib nomzod – Napoleon. O'z armiyasi bilan uchrashar e'kan Napoleon tartibga tushirish lozim bo'lgan bir gala juldurvoqilarni ko'rdi. Buning ustiga armiyada hammasi bo'lib 30 ming odam va 30 ta to'p bo'lib, bu dushmannikidan yetti marta kam edi. Armiya inqilob yillarida tuzilgan bo'lsa ham, unda demokratik tartiblar yildan yilga kamayib borayotgandi. Allaqachon zobitlarni, harbiy sudlarni saylash bekor qilingan, askarlarning inqilobiy kayfiyati ham so'nib borar edi. 26 yoshli general ana shu armiyani jangovar qobiliyatli qilishi lozim edi. Napoleon bu vazifaning uddasidan chiqdi. U avliyo emas edi, ammo askarlarning o'lja olish ishtiyoqini to'g'ri yo'lga yo'naltira olgandi. Yosh qo'mondon yurishlaridan oldin quyidagicha so'zlar edi: "Askarlar, sizlar yalang'ochsizlar va qorningiz ham to'q emas. Men sizni dunyoning eng hosildor tekisliklariga olib boraman. Boy viloyatlar va katta shaharlar hukmingizda bo'ladi, siz u yerda hurmat, boylik va shon-sharaf topajaksiz".

Napoleonning jasurligi afsonaviy edi. U notiq edi, u shamol yanglig' uchqur edi. Birgina Italiya jangida Napoleon mingan 19 ta ot o'ldirildi, Arkol jangida esa o'qlar yomg'iriga qaramay qo'shinning ruhiyati uchun yayov holda qo'lida bayroq bilan Arkol ko'prigi tomon tashlandi. Napoleon o'zini oddiy harbiy qo'mondon deb emas, balki xalqning taqdiriga ta'sir eta oladigan shaxs deb bilgan. U Fransiya armiyasiga qo'mondonlik qilgan davrda Italiya shimoli, Avstriya va Misr yurishlariga boshchilik qiladi. Britaniya armiyasini Gibraltarda dog'da qoldirib, Suriya sahrolarida turk armiyasini mag'lub etdi. Borodino jangida ruslardan yengilsa-da, o'z yurtida ko'p marotaba triumfator sifatida kutib olindi. Vaterloda esa qismat uni o'z domiga tortdi. Butun Yevropa va ichki g'animlar bir mushtga birlashdilar. Aynan shu kuni uch qit'a kalitlarini beliga osib olgan imperator va sarkardaning faoliyatiga nuqta qo'yildi. Bir zamonlar Rossiya manfaatlari uchun kurashgan Boris Godunovning jasadi Arxangelsk ibodatxonasidan chiqarib tashlangan edi. Angliya inqilobining dohiysi Oliver Kromvelning ustixonini esa Vestminster-Xollning tomiga ilib qo'yishadi. Bugungi kunda esa har ikki shaxs millat faxri sifatida eslanadi.

Zamonlar bir maromda tebranadi, hayot so'qmoqlari esa bir on bo'lsin kimsasiz qolmaydi. Shuningdek, general Bonapartdek millatning yo'lchibonlari uzoq asrlar bashariyat xotiralarida qoladi.

Bahromjon XUDOYBERDIYEV,
Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabi o'qituvchisi

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi kafedralarida mavjud quyidagi bo'sh (vakant) o'rinlarga tanlov e'lon qiladi:

Kafedra mudiri lavozimiga:

1. "Xalqaro munosabatlar va ijtimoiy fanlar" kafedrasi (1).

Professor lavozimiga:

1."Din psixologiyasi va pedagogika" kafedrasi (1).

Dotsent lavozimiga:

1. "Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o'rganish ICESCO" kafedrasi (1).
2. "Chet tillari" kafedrasi (1).
3. "Xalqaro munosabatlar va ijtimoiy fanlar" kafedrasi (1).
4. "Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi" kafedrasi (1).

Katta o'qituvchi lavozimiga:

1. "Dinshunoslik va jahon dinlarini qiyosiy o'rganish UNESCO" kafedrasi (1).
2. "Islom tarixi va manbashunosligi - IRCICA" kafedrasi (1).
3. "O'zbek tili va mumtoz sharq adabiyoti" kafedrasi (1).
4. "Chet tillari" kafedrasi (1).
5. "Din psixologiyasi va pedagogika" kafedrasi (1).
6. "Xalqaro munosabatlar va ijtimoiy fanlar" kafedrasi (1).
7. "Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi" kafedrasi (1).
8. "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari" kafedrasi (1).

O'qituvchi lavozimiga:

1. "Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o'rganish ICESCO" kafedrasi (1).
2. "Arab tili va adabiyoti - al-Azhar" kafedrasi (1).
3. "O'zbek tili va mumtoz sharq adabiyoti" kafedrasi (1).
4. "Chet tillari" kafedrasi (1).

O'qituvchi-stajyor lavozimiga:

1. "Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o'rganish ICESCO" kafedrasi (1).
2. "Arab tili va adabiyoti - al-Azhar" kafedrasi (1).
3. "Chet tillari" kafedrasi (1).

Tanlovda qatnashishni xohlovchilar tanlov e'lon qilingan kundan boshlab 30 kun ichida quyidagi manzilga ariza bilan murojaat qilishlari mumkin:



Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 11-uy, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi xodimlar bo'limi.

Murojaat uchun telefonlar:
(71) 244-94-68, 244-94-66.

Amerikani zabt etayotgan o'zbek o'g'lonlari

Toshkentda tug'ilgan Abdug'afur Islomov turon yakkakurashi bo'yicha xalqaro toifadagi sport ustasi, oliy toifali murabbiy va xalqaro toifadagi hakam. Janubiy Koreyaning ikki sport turi, ya'ni hapki yusul va hapkido sport turlari bo'yicha 4-DAN qora belbog' sohibidir. Sportchi sambo, ushu va turon yakkakurashi bilan professional shug'ullanib, 20 yil davomida O'zbekiston, Osiyo va jahon chempionatlarida g'alaba qozongan.

Abdug'afur 2001-yili Respublika olimpiya zaxiralari kollejida turon yakkakurashi bo'limi tashkil etilgach, bu dargohda 2015-yilgacha samarali mehnat qildi. Bu davr ichida turon yakkakurashi bo'yicha mamlakat terma jamoalariga a'zolar, xalqaro toifadagi sport ustasi, malakali trener va hakamlar tayyorladi. Trenerlik faoliyati davomida yosh turonchilarning musobaqaoldi tayyorgarlik uslubiyatini takomillashtirish muammosi ustida jiddiy ish olib borib, ba'zi natijalarga erishdi. Chet el tajribasidan keng foydalangan holda boshqa yakkakurash turlari bo'yicha ham izlanishlar olib bordi.

2015-yilda sport, trenerlik va ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish, ayniqsa, milliy yakkakurash sportini xorijda targ'ib etish maqsadida AQSH-ga keldi. Uch yil davomida jismoniy va maxsus tayyorgarlik ustida jiddiy ishlab, yakkakurash turlari bo'yicha nufuzli xalqaro musobaqalarda g'olib va sovrindor bo'ldi. Amerikaga kelishidan avval Xitoy, Janubiy Koreya, Fransiya, Slovakiya, Chexiya, Germaniya kabi davlatlarda ham milliy sport turlarimizni keng targ'ib qilib, yaxshi natijalarga erishgan. Chexiya va Slovakiyada turon yakkakurashi federatsiyasini ochishga ham muvaffaq bo'lgan. Ummonortida qisqa vaqt mobaynida murabbiylik faoliyatida bir qator nufuzli sport tashkilotlari orasida hurmat qozonishga ulgurdi. Tirishqoq, oddiy uslublarda yakkakurash turlarining sir-asrorlarini tushuntira oladigan vatandoshimizga xorijlik mutaxassislar yuksak baho berishmoqda.

— Mashg'ulotning rejadagi va amaldagi parametrlari o'rtasidagi tafovutni aniqlash, ularning dinamikasi, o'lchamlari, rejalashtiriladigan mashg'ulot davrini belgilash, kichik, o'rta va katta sport mashg'uloti sikllari doirasida rejalashtirish hamda nazorat qilishning o'zaro uzviy bog'liqligini tashkil qilish, bu jarayonga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish maqsadga muvofiq, – deydi Abdug'afur Islomov.

Hozir yakkakurash turlarida mashg'ulotni rejalashtirish to'g'risidagi tasavvurlar ancha o'zgardi. Bu musobaqa qoidalariga ba'zi o'zgartirishlar, bellashuvlar tomoshabopligini oshirish bo'yicha qo'yilgan talablarga bog'liq. Qahramonimizning AQSHga ilk bor tashrif buyurishidan ko'zlangan maqsad bu borada mamlakatdagi amaliyotdan foydalanish edi. Tanish-bilishlari ko'pligiga qaramasdan, til va hujjat masalasida qiyinchiliklarni yengib o'tishga to'g'ri keldi. AQSHda huquqiy maqom olish uchun sportchi va murabbiylik faoliyatidagi hujjatlarini Immigratsiya xizmatiga topshirdi. O'z navbatida, ular Abdug'afurga ish faoliyatini olib borishi uchun tegishli hujjatlarni taqdim etishdi. Iqtisodini tiklash uchun turli qo'shimcha ish qilishiga ham to'g'ri keldi. Sportchi sifatida xalqaro musobaqalarda qatnashib, sovrinli o'rinlarni egalladi. Garchi kichik guruhda tashkil etilgan bo'lsa-da, sport turini tanishtirishda musobaqalar qo'l keldi.

2015–2018-yillar davomida o'z jismoniy va maxsus tayyorgarligi ustida jiddiy ishlagan sportchi jamoasiga mahalliy yoshlar bilan bir qatorda, turli sabablarga ko'ra Amerikada yashayotgan o'zbekistonlik yigit-qizlarni ham jalb qildi. Shogirdlari bilan nufuzli musobaqalarda, jumladan, 2016-yil 28-may kuni Joliyet shahrida, 2018-yil 5-6-may kunlari Nyu-York shahrida sambo bo'yicha bo'lib o'tgan Amerika ochiq chempionatida, 4–6-iyul kunlari Orlando shahrida "US open, ISKA World martial arts Championship" turnirida muvaffaqiyatli ishtirok etdi. Jamoadoshlar jami 3 oltin, 2 kumush va 3 bronza medaliga ega bo'lishdi. Bunda A.Islomovdan tashqari shogirdlaridan Ubaydulla Toirov, Behzod Karimovlarning hissasi katta bo'ldi.

Chet ellik mashhur mutaxassislardan Bob Cla, Eddy Aguiar, Javier Palomo, Stephen Koepfer, Pablo Rodriguez, Lenny Polyakov, Ruben Rukabilar o'zbek pahlavonlarining yutuqlaridan hayratda qolib, o'zbek milliy sport turlariga qiziqishi hamda har tomonlama qo'llab-quvvatlash istagi borligini aytishdi. Bugungi kunda ushbu mutaxassislardan tashqari, xorijlik sportchilardan Jose Davila, Uriel Diaz, Ivan Antonov, Eyby Flores, Cesar Roges, Marian Shultis, Gedeon Jean, Denis Agleevlar bilan hamkorlikda ishlash yo'lga qo'yilgan.

Biroz vaqtdan so'ng, o'z mavqeyini tiklab olgan sportchimiz katta marralarni maqsad qilib qo'ydi. Shogirdlari va kasbdoshlari bilan birga amerikaliklar orasida o'zbek yakkakurashini keng targ'ib qilish, ularning Vatanimizga qiziqishini oshirish hamda ular orasidan iqtidorlarni tanlab olish maqsadida AQSHda 2017-yili "Single combat Turon LLC" sport klubi va 2020-yili "International single combat turon academy"ni rasmiy davlat ro'yxatidan o'tkazib, faoliyatini yo'lga qo'ydi.

Abdug'afurning fikricha, aksariyat hollarda terma jamoa bosh murabbiylari yuqori malakali sportchini har tomonlama tayyorlash bilan birga sport menejmenti bilan ham shug'ullanadi. Ularga bu ortiqcha vazifa hisoblanib, asosiy faoliyatiga salbiy ta'sir qiladi. Ularning asosiy vazifasi esa sportchini navbatdagi musobaqalarga texnik-taktik, psixologik va tarbiyaviy nuqtayi nazardan tayyorlashdir. Sport menejeri esa sport tashkiloti to'g'risida ma'lumotlarni reklama qilish, aholining barcha qatlamlarini, ayniqsa, yoshlarni sportga jalb qilish, turli musobaqalar, xususan, tijorat tadbirlarini tashkil etish, boshqa sport va manfaatdor tashkilotlar bilan aloqalarni o'rnatish, sport biznes loyihalari hamda tashkilot strategiyasini ishlab chiqish kabi tashkiliy ishlar bilan shug'ullanishi kerak.

Ushbu ishlarni amalga oshirishda qahramonimiz kelajakda jismoniy tarbiya va sport sohasida AQSH va O'zbekiston davlatlari o'rtasida manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha istiqbolli rejalarni amalga oshirishga bel bog'lagan. Bu yo'lda unga hamkasblaridan Farhod Turdiyev, Ubaydullo Toirov, Sobirjon Bobojonov, Alisher Jumaboyev, Diyor Abdusamadov, Zafar Usmonov, Furqat Isayev, shogirdlaridan Behzod Karimov, Ravshan Almatov, Farrux Niyozimbetov hamda Azim Bobomurodovlar har tomonlama ko'maklashmoqda.

O'ylaymizki, Abdug'afur va jamoadoshlarining ummonortidagi ko'p qirrali faoliyati kezi kelib mamlakatimiz sportining dunyo uzra nom qozonishida qo'l keladi.

Farhod ORZIBOYEV,
Sirg'ali tumanidagi
305-maktab direktori o'rinbosari

Xaqqulov Jaxongir Mardonovichning 01.04.06 – Polimerlar fizikasi (fizika-matematika fanlari) ixtisosligi bo'yicha "Elektroliz usulida biomoyil polimer qoplamalarning shakllantirilishi" mavzusidagi(fizika-matematika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.K/FM/T.36.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 22-oktabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100128, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 76-uy.
Tel/faks: (71) 241-85-94, 241-26-61; e-mail: polymer@academy.uz

Pardaboyev Jasur Eshbekovichning 13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Maktabdan tashqari ta'limda o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyalari" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta'limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped 48.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 15-oktabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil:100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 76-uy.
Tel/faks: (71) 246-92-17, 246-90-37; e-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz

Aydarov Yerkin Bakitovichining 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha "O'quvchi-yoshlarga tabiiy hududlarni muhofaza qilish orqali ekologik tarbiya berish texnologiyalarini takomillashtirish" mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 27-oktabr kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Chirchiq davlat pedagogika instituti.
Tel: (70) 712-27-55, 712-45-41; e-mail: chdpi-kengash@umail.uz

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tomonidan Davlat attestatsiya komissiyasining 2012-yil 7-iyuldagi qaroriga binoan Zakirova Nargiza Nurullayevnaga berilgan B № 613027 (ro'yxat raqami 627) raqamli DIPLOM va uning ilovasi yo'qolgani sababli
BEKOR QILINADI.

Xalq demokratik partiyasi saylovchilar bilan yuzma-yuz

Saylov kuni yaqinlashgani sari, jarayon nihoyatda avj pallasiga yetmoqda. Partiyalardan ko'rsatilgan nomzodlar va ularning ishonchli vakillari hududlarda aholi bilan muloqot qilib, targ'ibot-tashviqot ishlarini tobora kuchaytirmoqda.

Umuman olganda, saylovoldi jarayonlarida bir jihat yaqqol ko'zga tashlanmoqda – xalqimizning siyosiy faolligi, madaniyati ancha yuksalgan. Qolaversa, nomzodlarning har bir qadami keng jamoatchilik, OAV nigohida bo'lib turgani uchun bu yilgi saylov, aytish mumkinki, fuqarolarimizning saylov qonunchiligi borasidagi bilimlarini ham yuksaltirdi.

Lo'ndasini aytganda, dunyoda allaqancha davlatlar bor – saylovni tashkil etish, o'tkazishga iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy jihatdan tayyor emas. Yaqindagina mustaqilligining 30 yilligini nishonlagan O'zbekiston Respublikasidagi mavjud saylov tizimi, saylov qonunchiligi, nima desangiz ham aytay, bir fuqaro sifatida meni g'ururlantirdi. O'z davlati bilan iftixor etish tuyg'usi, aminmanki, bugun millionlab yurtdoshlarimiz qalbida barq urib turibdi.

Saylovoldi shtabida ko'tarinki kayfiyat

Ayni paytda XDP Markaziy Kengashi va joylardagi tuzilmalarida ish qizg'in. Nomzodning saylovoldi dasturini keng targ'ib etish, bunda qonunchilikka to'la-to'kis amal qilish, ijtimoiy muhitda yetilib kelayotgan kayfiyatni his qilib so'z aytish masalaning bir qismi bo'lsa, elektorat bilan yuzma-yuz muloqotlar, g'alvir suvdan ko'tariladigan pallada aytilishi lozim bo'lgan mulohazalar alohida yo'nalish.

Odamlar nomzodning dasturi bilan tanishar ekan, uning ishonchli vakillariga dangal savollar beryapti, aniq masalalar qo'ymoqda. Demoqchimizki, odamlar o'zgargan, bugungi saylovchi – o'z huquqini biladigan, fikrini bemalol ayta oladigan inson. Bu esa saylov shtabidan yanada tezkorlik, aniqlik, har bir chiqishlarga o'ziga xos yondashuvlarni talab etmoqda.

Shuningdek, joriy saylovlarda uchrashuv va muloqotlar to'g'ridan-to'g'ri va jonli muloqot tarzida(Live) yoritib borilmoqda. Voqelikdan real vaqt oqimida boxabar bo'lib borish, mavjud axborotni to'plash, tahlil qilish va qayta ishlash uchun juda kam vaqt qoldiradi, media shtabga qo'shimcha mas'uliyat yuklaydi.

Umuman olganda, XDP saylov shtabida hammaning kayfiyati ko'tarinki, katta ishtiyoq bilan, reja bo'yicha jarayonga tayyorgarlik ko'rilmoqda. Zotan, yurt rivoji uchun o'z hissasini qo'shish ishtiyoqidagi safdoshlar, partiyadoshlar bilan sog'lom raqobat muhitida ishlash, jamiyatga yuzlanish o'zga xos zavqli, noyob voqelik.

G'oyalar kurashi

Saylov arafasida partiyalarning mafkura bo'limida ish qizg'in bo'ladi. Boisi, saylov mohiyatan ideologik kurash, mafkuralar bellashuvi hamdir.

Nomzodning saylovoldi dasturi konseptual jihatdan XDPning doimiy va qat'iy pozitsiyasi bo'lgan g'oyalardan oziqlanib, ularga asoslangan holda tuzilgan.

Ammo mafkura jabhasida yangi so'z aytish, aytganda ham hammaga ma'qul qilib, saylovchining qalbida turgan fikrlarni topib aytish – katta mahorat.

Shu ma'noda XDP nomzodi tomonidan dastur mazmun-mohiyatida, eng birinchi navbatda, aholining ijtimoiy muhofazaga muhtoj, xususan, kambag'al qatlamiga asosiy e'tibor berilgani, nafaqat huquqlar, balki ularni amalga oshirishda imkoniyatlar tengligi masalasi izchil qo'yilgani ijobiy baholanmoqda. Aynan mana shu jihat XDP nomzodining saylovoldi chiqishlariga o'ziga xoslik bag'ishlab, boshqa nomzodlardan yaqqol ajratib turibdi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Tanqid? Ha, u ham bor. Bizning g'oyalarimizni olqishlab kutib olishlari barobarida, ayrim o'rinlarda tanqidlarga ham duch kelindi. Lekin bu ham jarayonning bir qismi va biz bunga tayyor bo'lib kurashga kirishganmiz.

Siyosiy muhokamalarga nazar

Maqsuda Vorisova tomonidan ilgari surilgan dasturda kundalik ehtiyojdagi tovar va xizmatlarning ijtimoiy maqbulligini ta'minlash, boshqacha aytganda, narxlarni nazorat qilish taklifi bo'yicha ko'p muhokamalar bo'ldi.

Ekspertlar va ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari fikrlarini umumlashtirib aytganda, ijtimoiy ahamiyatga molik tovarlar va xizmatlar narxi hamda tariflarini shakllantirish ustidan davlat va jamoatchilik nazoratini qat'iy o'rnatish yaxshi. Chunki bu ikki tomonning mas'uliyatini oshiradi va sohada amalga oshirilayotgan dasturlarning samaradorligini ta'minlaydi. Taklif etilayotgan mexanizmlar davlatning bu sohadagi ijtimoiy siyosatini kuchaytirish va kengaytirishga xizmat qiladi.

Davlat tomonidan ulgurji va chakana savdo narxlari o'rtasidagi qat'iy me'yorni o'rnatish chorasi bozorda nopok tadbirkorlarning aholi uchun eng zarur bo'lgan ijtimoiy mahsulotlar narxiga spekulyativ ta'sir o'tkazishiga yo'l qo'yilmasligi nuqtayi nazaridan maqsadga muvofiq.

Nomzod bo'lib o'tayotgan muloqot va uchrashuvlarda dasturidagi taklif va tashabbuslarni partiya g'oyalari, elektorat manfaatlaridan kelib chiqib asoslab bermoqda.

Bu gaplarni aytishdan murod shuki, xalq demokratiyasi degani mana shu! Hech bir qarash yoki dastur o'zgarmas, mukammal emas, qolaversa, Maqsuda Vorisova o'z dasturiga dogmatik yondashmayapti. Mana bu jihat ham joriy saylovlardagi yana bir o'ziga xoslik, ochiqlik, shaffoflik mahsuli deyish mumkin.

O'zbekiston XDP Xalq demokratik partiyasi

Axborot, axborot, axborot

Odamlarning konstitutsiyaviy huquqlaridan eng muhimi saylov jarayonlarida ishtirok etish hisoblanadi. Bugun, ayni shu daqiqalarda bu mavzu har qachongidan ham muhim ahamiyatga ega. Binobarin, Prezidentlik sayloviga sanoqli kunlar qoldi.

Shu kunlarda taniqli olimlar, huquqshunos-ekspertlar aytayotganidek, jarayonda fuqarolar faolligini oshirishdagi muhim generator – oshkoralik va ochiqlik hisoblanadi.

Xo'sh, ushbu mezonga amal qilinyaptimi? Boshqacha aytganda, saylovoldi targ'ibot kampaniyasida media imkoniyatlaridan to'liq foydalanilyaptimi?

Akkreditatsiyadan o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlardan qatnashadigan kuzatuvchilar umumiy soni 159 nafarni tashkil etmoqda. Markaziy saylov komissiyasi xalqaro kuzatuvchilarga saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish davrida o'z faoliyatini amalga oshirishlari uchun mandatlarni qonunda belgilangan muddatda taqdim etmoqda.

Akkreditatsiyadan o'tkazilgan mahalliy OAV vakillari jami 1253 nafar, xorijiy ommaviy axborot vositalari vakillari esa 48 nafarni tashkil etmoqda.

Barcha ommaviy axborot vositalari saylov munosabati bilan maxsus ko'rsatuv va muloqotlarni yo'lga qo'ydi.

MAXSUS BOT TASHKIL ETILDI. Unga ko'ra, saylovchi o'zi turgan hudud qaysi saylov uchastkasiga tegishli ekanligi hamda saylov uchastkasining manzili va joylashgan geolokatsiyasi haqida ma'lumotlarni olishi mumkin(@saylov_xarita_bot).

Umuman, Prezident saylovi kampaniyasi siyosiy partiyalar, nomzodlar, ishonchli vakillar, faol fuqarolar va ommaviy axborot vositalari, eng asosiysi, saylovchilar uchun ko'tarinki kayfiyatda davom etyapti. Xalqimiz kelgusi besh yillik istiqboli uchun ovoz berishga hozirlanmoqda. Xalq demokratik partiyasi ko'pni ko'rgan, huquq va imkoniyatlar haqida ko'proq gapirayotgan partiya. Bizning nomzodga ovoz bering!

Ma'rifat

TA'SIS ETUVCHILAR:
O'zbekiston xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150. V-4877. Tiraji 7391.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan, qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:
qabulxona — (71) 233-50-55;
kotibiyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi — (71) 233-42-92 (faks), (71) 233-56-00.

ISSN 2010-6416

"Ma'rifat"dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualifga qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:
100083, Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Navbatchi muharrir: Humoyun Quvondiqov.
Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

123456